



DAVLAT VA HUQUQ

ASOSLARI

11

Akmal Sodikov, Nargiza Ismatova, Javoxir Bobojonov

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

11-sinf



Yangi nashr

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

Toshkent – 2025



Mas'ul muharrir
Ixtiyor Bekov – yuridik fanlar doktori, professor

TAQRIZCHILAR:

- V. Davlyatov** – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktorining o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor
- M. Turgunov** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori, yuridik fanlar doktori
- Sh. Saydullayev** – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor
- M. Karimjonov** – Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi, mehnat huquqi bo'yicha ekspert
- B. Maxmudboyev** – Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
- S. Akkulova** – "Ziyo Muallim pedagoglar rivojlanish markazi" nodavlat ta'lim muassasasi rahbari
- M. Yo'ldasheva** – Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xulosasi asosida takomillashtirildi.

SHARTLI BELGILAR


Faollashtiruvchi
savollar


Asosiy
tushunchalar


Yodda tuting


Fikrimizni
tasdiqlaymiz


Tarixga
nazar


Xulosa
qiling


Hamkorlikda
bajaramiz


Izlanishda
davom eting



Qonun
belgilaydi


Ijodiy faoliyat

Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.

MUNDARIJA

I BOB. MEHNAT HUQUQI



1-dars. Mehnatga oid huquqiy munosabatlar	6
2-dars. Aholini ishga joylashtirish	10
3-dars. Mehnat shartnomasi	14
4-dars. Ish vaqti va dam olish vaqti	18
5-dars. Mehnatga haq to'lash	22
6-dars. Intizomiy va moddiy javobgarlik	26
7-dars. Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solish	30
8-dars. Mehnat muhofazasi	34
9-dars. Ijodiy faoliyat	38

II BOB. MA'MURIY HUQUQ



10-dars. Ma'muriy huquq tushunchasi	42
11-dars. Davlat xizmatlaridan foydalanish	46
12-dars. Ma'muriy-huquqiy nizolar	49
13-14-dars. Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy javobgarlik	52
15-dars. Huquqbuzarlikning oldini olish	56
16-dars. Ijodiy faoliyat	60

III BOB. JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA



17-dars. Jinoyat huquqi	64
18-dars. Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi	68
19-20-dars. Shaxsga qarshi jinoyatlar	72
21-22-dars. Zo'ravonlik va uning oldini olish	76
23-dars. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar	80
24-dars. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar	84
25-dars. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar	88
26-27-dars. Jinoyat-protsessual huquqi	92
28-dars. Ijodiy faoliyat	98

IV BOB. EKOLOGIYA HUQUQI



29-dars. Ekologiya huquqi tushunchasi	104
30-31-dars. Ekologik-huquqiy javobgarlik	108
32-33-dars. Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish	114
34-dars. Ijodiy faoliyat	120

AZIZ O'QUVCHI!

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi – bu tartib va qonun ustuvorligidir. Bu borada yo'naltiruvchi "yo'lchi yulduz" vositasi sifatida huquqiy ong va huquqiy madaniyat maydonga chiqadi. Albatta, bunda "Davlat va huquq asoslari" fani har bir shaxs uchun zarur bo'lgan huquqiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan muhim o'quv fanlaridan biridir. Bu fan, ayniqsa, yurtimizning kelajagi bo'lgan siz, yoshlarning huquqiy bilimlari yetuk bo'lishiga, huquqiy xulq-atvor va el-yurt ravnaqiga daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu darslik yuqoridagi maqsadlarga erishish yo'lida katta hayotga ilk qadamlarini qo'yishni rejalashtirayotgan bitiruvchi maktab o'quvchilari uchun tayyorlangan bo'lib, unda o'quvchilarning kundalik hayotida zarur bo'ladigan huquqiy masalalar qamrab olingan. Jumladan, darslikda keltirilgan mehnat huquqi sohasidagi ishga joylashish, mehnat shartnomasi, ish vaqti, dam olish vaqti, mehnatga haq to'lash, intizomiy va moddiy javobgarlik kabi masalalar o'quvchilarning mehnat qilish borasidagi zaruriy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga zamin hozirlaydi.

Ma'muriy huquq bobida keltirilgan davlat xizmatlaridan foydalanish, davlat organlariga murojaat qilish, ma'muriy-huquqiy nizolar ustidan shikoyat qilish, ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy javobgarlik kabi mavzular o'quvchilar uchun zaruriy bo'lgan nazariy-amaliy bilimlarni rivojlantiradi.


Shuningdek, jinoyat huquqi, jinoyat protsessual huquqi, atrof-tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish kabi so'nggi boblar yordamida maktab o'quvchilari jinoiy jazo va uni tayinlash asoslari, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari bo'yicha muhim va qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Umuman olganda, darslikdagi barcha mavzularni o'rganish o'quvchilarda huquqbuzarlikka toqatsizlik hissi shakllanishiga ko'mak beradi.

Mazkur darslikdagi har bir mavzu o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi maqsadida hayotiy misollar bilan uzviy bog'liqlikda ishlab chiqilgan. Bu orqali siz o'rgangan bilimlaringizni amaliyotda qo'llashni mashq qilasiz. Bu esa nafaqat nazariy bilimlaringizni, balki amaliy ko'nikmalaringizni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ushbu darslik sizda Vatanga sadoqat, jamiyat oldidagi mas'uliyat, qonunga hurmat kabi ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Zero, yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lgan yoshlar davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi, yurt taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Aziz o'quvchi! Sizga taqdim etilayotgan "Davlat va huquq asoslari" darsligi nafaqat huquqiy bilimlaringizni yuksaltirish, balki hayotingizda duch keladigan muhim vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradigan ishonchli manba bo'la oladi. Ushbu kitobni puxta o'rganish orqali siz huquqiy savodxonlikni oshirasiz, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirasiz.

Shuni unutmangki, bugungi rivojlangan zamonda davlatlarning kuch-qudrati qurol-yarog' zaxiralari bilan emas, aksincha, fuqarolarning salohiyati, ilm-ma'rifati bilan o'lchanadi. Huquqiy bilimlarga ega bo'lish hamda ularga rioya qilish esa taraqqiyotining adolat va qonuniylik zamirida rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'ylaymizki, mazkur darslikni maroq bilan o'rganib, siz aziz o'quvchilar, Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan, adolat va qonun ustuvorligi g'oyalariga sodiq, yuksak huquqiy madaniyatli fuqarolar bo'lib yetishasiz.



I
BOB

MEHNAT HUQUQI

MEHNATGA OID HUQUQIY MUNOSABATLAR



Faollashtiruvchi savollar

Rasmlarga e'tibor qarating va quyidagi savollarga javob bering.

1. Qaysi rasmda mehnatga oid huquqiy munosabatlar aks ettirilgan, deb o'ylaysiz?
2. Mehnat huquqiy munosabatlarini boshqa huquqiy munosabatlardan qanday farqlab olish mumkin?
3. Qanday shaxslar mehnat munosabatlarida ishtirok etadi?
4. Qaysi rasmda ish beruvchi tasvirlangan, deb hisoblaysiz? Nima uchun?
5. Qaysi rasmda xodimlar tasvirlangan, deb hisoblaysiz? Nima uchun?
6. 4-rasmda tasvirlangan mijozlar uchun veb-sahifa yaratib berish kabi onlayn xizmatlarni ham mehnat munosabatlariga misol keltirish mumkinmi? Nima uchun?



Asosiy tushunchalar

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar – bu ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat shartnomasiga asosan yuzaga keladigan huquqiy munosabatlardir. Bunday munosabatlarni tartibga solishdan ko'zlangan asosiy maqsad ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat jaryonini tartibga solish, har ikki tomonning huquq hamda majburiyatlarini belgilash, shuningdek himoya qilish hisoblanadi.




Qonun belgilaydi

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatti haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
42-modda**



Yodda tuting



Asosiy tushunchalar

Mehnat huquqi – mehnat faoliyati jarayonida vujudga keladigan ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi hisoblanadi.

Bu huquq sohasi xodimlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, adolati va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Mehnat huquqi orqali ishga qabul qilish va bo'shatish tartibi, ta'til berish shartlari, mehnat intizomi va javobgarlik masalalari aniqlanadi. Shu bilan birga, ish beruvchining majburiyatlari va xodimning huquqlari muvozanatda bo'lishi ta'minlanadi.

Mehnat qonunchiligi manbalari – bu mehnatga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardir.

Tarixga nazar



Quyidagi tarixiy manbadan keltirilgan parcha bilan tanishib chiqing.


Uning mohiyatini muhokama qiling.

“Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa, ammo hunari bo'lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo'lur. Agar kishida ham nasab gavhari va ham hunar zevari (ziynati) bo'lmasa, undan battarroqdur.

Jahd qilg'il, agar gavharing har nechakim asl bo'lsa, unga g'arra bo'lmag'il, nedinkim tan gavhari hunar zevari bila muzayyan (ziynatlangan) bo'lmasa, u hech narsaga arzimagusidur.

Andoqkim debdurlar: “Ulug'lik aql va donishlik biladur, gavhar va nasab bila bo'lmas”.

Kaykovus, “Qobusnoma”

**Yodda tuting**

Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiya – Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 1999-yil 17-iyunda qabul qilingan. Mazkur Konvensiya 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun eng yomon mehnat shakllarini cheklaydi. Masalan, bolalarni majburiy mehnatga, noqonuniy faoliyatlar va xavfli ishlar-ga jalb etishni taqiqlaydi.

**Mehnatga oid munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari**

Mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash – har bir shaxs mehnat qilish huquqiga ega va hech kim ishga qabul qilishda yoki mehnat qilish jarayonida kamsitilmasligini anglatadi.

Mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash – har bir inson o'z xohishiga ko'ra ish joyini tanlash huquqiga ega va hech kim majburiy ishlarga jalb etilishi mumkin emas.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik – mehnat munosabatlarini rivojlantirishda jamoat birlashmalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etuvchi tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

Masalan, davlat organlari xodimlarning huquqlarini himoya qilishda kasaba uyushmalarining faoliyatini doimo qo'llab-quvvatlaydi.

Mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi – xodimlarning mehnat huquqlari himoya qilinadi va ish beruvchi ham, xodim ham o'z majburiyatlarini bajarishi shart.

Xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi – hech bir ichki hujjat, ish beruvchining yakka tartibdagi hujjati xodimning huquqiy holatini normativ-huquqiy hujjat-larga nisbatan yomonlashtirishi mumkin emas.



Izlanishda davom eting

Quyidagi vaziyatlarda mehnatga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning qaysi prinsiplari buzilgan deb o'ylaysiz?

1-vaziyat. Korxonada direktori umumxalq bayrami munosabati bilan kasaba uyushmasining taklifiga asosan mukofot puli beriladigan xodimlarning ro'yxatini shakllantirdi. Ushbu ro'yxatga birinchilardan bo'lib, o'ziga yaqin xodimlarni kiritdi. Mukofot puli olmagan xodimlar e'tiroz bildirganda, direktor xodimlar tomonidan asossiz norozilik bildirganliklari uchun "jazo" sifatida qo'shimcha haq to'lanmaydigan ishlarni bajarishni yukladi.




2-vaziyat. Malika do'konda sotuvchi bo'lib ishlaydi va uning ish vaqti kuniga 8 soat qilib belgilangan. Do'kon mudiri ish hajmi oshgani uchun Malikaga har kuni 10 soat ishlashi kerakligini, lekin buning uchun qo'shimcha ish haqi to'lanmasligini bildirdi.

3-vaziyat. Aziz xususiy firmada ishlaydi, lekin boshqa joydan yaxshiroq ish taklifini oldi. U direktorga ariza yozib, shartnomaga ko'ra o'z xohishiga binoan ishdan ketmoqchi ekanligini bildirdi. Direktor ish beruvchi sifatida firmaning kelajagi uchun Aziz yaxshi xodim ekanligini vaj qilib, mehnat shartnomasini bekor qilishga rozi bo'lmadi.



4-vaziyat. Qurilish kompaniyasidagi xodimlar xavfsizlik vositalari yetarli emasligidan shikoyat qilishdi. Kasaba uyushmasi kompaniya rahbariyati bilan masalani muhokama qilib, barcha xodimlarga zarur himoya kiyimlari berilishini talab qildi. Ammo qurilish kompaniyasining boshlig'i hozirda mablag'lar yetarli emasligidan kelib chiqib, xodimlar o'z hisobidan xavfsizlik vositalarini sotib olishini buyurdi.







2-DARS

AHOLINI ISHGA JOYLASHTIRISH



Faollashtiruvchi savollar

Ishga joylashish jarayoni aks etgan quyidagi rasmlarning mantiqiy ketma-ketligini aniqlang. Quyidagi savollarga javob bering.



1. Ish izlab topishning qanday usullarini bilasiz? Ularga misol keltiring.
2. Ishga joylashishda qanday hujjatlar kerak bo'ladi, deb o'ylaysiz?
3. 18 yoshga to'lmagan shaxslar ishga kirish uchun ota-onasidan rozilik olishi talab etiladimi? Nima uchun?
4. Ishga joylashish uchun sizda qanday bilim va malaka bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?
5. Shaxslar necha yoshdan mehnat faoliyatiga oid huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'la oladi?
6. 3-rasmda ishga joylashishga oid qanday jarayon tasvirlangan?



Yodda tuting

Davlat ishsizlikni kamaytirish, mehnat bozorini tartibga solish va fuqarolarga munosib ish topishda yordam berish uchun turli choralarni amalga oshiradi.

Masalan, davlat mehnat organlari orqali ish qidirayotgan fuqarolarni ro'yxatga oladi va ularni bo'sh ish o'rinlari bilan ta'minlashga harakat qiladi. Shuningdek, davlat organlari aholining bandligini oshirish maqsadida kasbga qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqadi. Ayniqsa, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun maxsus dasturlar mavjud.



Qonun belgilaydi

Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi.

Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 43-modda



Ish bilan ta'minlash sohasida davlat tomonidan taqdim etiladigan kafolatlarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Ishsizlik nafaqasi va ijtimoiy yordam

Ishsizlik nafaqasi
Agar shaxs ishsiz qolsa, davlat unga vaqtinchalik moddiy yordam ko'rsatadi

Malaka oshirish kurslari

Ish topa olmaganlar uchun davlat bepul kasb-hunar kurslarini tashkil qiladi. Ularning malakasini oshiradi

Minimal ish haqi va mehnat sharoitlari

Minimal ish haqi kafolati
Davlat mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilaydi. Ish beruvchilar o'z xodimlariga mazkur summadan kam ish haqi berishi mumkin emas

Mehnat qonunchiligi talablariga rioya qilish

Ish beruvchilar xodimlar uchun talablarga javob beradigan mehnat qilish sharoitini yaratib berishga majburdirlar

Ish o'rinlari yaratish

Yangi korxonalar ochish
Davlat tashabbusi bilan yirik sanoat zonalarini tashkil etilib, ish o'rinlari ko'paytiriladi

Davlat dasturlari
Turli ijtimoiy davlat dasturlari orqali ehtiyojmand aholi qatlamlariga ish topishda yordam beriladi

Ish bilan ta'minlashga yordam berish

Mehnat yarmarkalari
Ish izlayotgan shaxslar uchun ish beruvchilar bilan hamkorlikda uchrashuvlar tashkil qilinadi

Ishga joylashish markazlari
Har bir hududda bandlikka ko'maklashuvchi markazlar yaratilgan bo'lib, ular orqali fuqarolar ish topishi mumkin



Asosiy tushunchalar

Kasbiy ko'nikmalar markazlari – bu O'zbekistonda fuqarolarni kasb-hunarga o'rgatish va ishga joylashishlariga yordam beradigan maxsus markazlar bo'lib, ular tegishli davlat organi tomonidan boshqariladi.

Bunday markazlar fuqarolarni bepul kasb-hunarga o'rgatish, ishga joylashishda yordam berish, chet tillari va zamonaviy ko'nikmalarni o'rgatishga ko'maklashadi.



Qanday holatda siz ishsiz hisoblanasiz?

Ishsizlar – o'n olti yoshdan to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan, tegishli mahalliy mehnat organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslardir.

Bunda ta'lim muassasalarida o'qiyotganlar ishsiz hisoblanmaydi.



Davlat ishsiz shaxslarga quyidagi kafolatlarni belgilaydi:

- ishsizlik nafaqasi to'lanishi;
- mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishini va shu davr umumiy mehnat stajiga qo'shilishini;
- mahalliy mehnat organlarining yo'llanmasiga ko'ra bepul, shu jumladan, grantlar hisobidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishni;
- haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etish imkoniyatini;
- tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga hamda shaxsiy tomorqa yer uchastkalarini rivojlantirishga qaratilgan subsidiyalarni olish imkoniyatini;
- mahalliy mehnat organlarining taklifiga ko'ra ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chib o'tish bilan bog'liq xarajatlar kompensatsiya qilinishini.



Yodda tuting



Belgilangan tartibda ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar ishsizlik nafaqasini olish huquqiga ega.

Ishsizlik nafaqasini to'lash ishsiz shaxsning yashash joyi bo'yicha davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ishsizlik nafaqasiga soliq solinmaydi.

Ishsizlik nafaqasi ishsiz deb tan olingan shaxsga u mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan birinchi kundan e'tiboran hisoblanadi va to'lanadi.

Ishsizlik nafaqasi o'n ikki oylik davr ichida ko'pi bilan yigirma olti kalendar hafta davomida to'lanadi.



Ishsizlik nafaqasining miqdori qancha?

Ishsizlik nafaqasining miqdori turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) so'nggi o'n ikki oylik davr ichida mahrum bo'lgan shaxslarga – avvalgi ish joyidagi o'rtacha oylik ish haqining ellik foizi miqdorida belgilanadi.

Lekin ilgari ishlamagan va birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining kamida yetmish besh foizida bo'ladi.





Tarixga nazar

“Temur tuzuklari”dagi “Vazir tutish tuzugi” bobidan olingan quyidagi parcha bilan tanishib chiqing. Zamonaviy davrda ishga qabul qilishda qo’llaniladigan talablarni muhokama eting.

“Amr qildimki, vazirlar ushbu to’rt sifatga ega bo’lgan kishilardan bo’lishlari lozim;

birinchisi – asillik, toza nasllilik;

ikkinchisi – aql-farosatlilik;

uchinchisi – sipoh-u riyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan yaxshi muomalada bo’lishlik;

to’rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kimki shu to’rt sifatga ega bo’lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va riyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to’rt imtiyoz: ishonch, e’tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin. Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to’g’rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko’rsatib, ajoyib tarzda bajaradi”.



Izlanishda davom eting

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 118-moddasi bilan tanishib chiqing.

Ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladigan yosh masalasini muhokama qiling.

Quyida keltirilgan vaziyatlarni mazkur norma asosida tahlil eting.

1-vaziyat. Ahrorjon o‘n to‘rt yoshda. U juda yosh bo‘lishiga qaramasdan, karate sport turi bo‘yicha jahon chempioni bo‘lib ulgurgan. “Humo” karate sport jamoasi Ahrorjonni murabbiy yordamchisi sifatida ishga qabul qilishni rejalashtirmoqda. Ahrorjonning ota-onasi bunga rozi bo‘lishdi.



2-vaziyat. Farzona o‘n ikki yoshda. Yoshiga nisbatan uning suxandonlik iqtidori ancha yuqori. O‘zining blogerlik faoliyatini ota-onasining ko‘magi bilan olib boradi. Farzonani “Bolajon” televideniyesiga boshlovchi sifatida ishga taklif etishdi. Farzona-ni onasi juda xursand bo‘ldi. Biroq uning otasi qizining mehnat faoliyatini boshlashiga hali juda erta ekanligini ta’kidladi.

3-vaziyat. A‘zamjon o‘n sakkiz yoshga to‘lishi bilan ota-onasi-ga ko‘maklashish maqsadida maktabdan bo‘sh vaqtida “Dunyo” mehmonxonasida menejerlik faoliyatini boshlab yubordi. Uning ota-onasi mehnat qilish uchun hali “vaqtli” ekanligini aytib, A‘zam-jon faqat ta’lim olishga diqqat qilishini bildirishdi.





3-DARS

MEHNAT SHARTNOMASI



Faollashtiruvchi savollar

Quyida keltirilgan mehnat shartnomasida belgilanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni o'zaro moslashtiring. So'ngra quyidagi savollarga javob bering.

1. Mehnat shartnomasining taraflari haqidagi ma'lumotlar	a) ish joyi, lavozim, ish vaqti va shartlari
2. Mehnat sharoitlari	b) ish beruvchi va xodimning shaxsiy ma'lumotlari
3. Maosh va to'lovlar	c) oylik maosh, ustama va kompensatsiyalar
4. Mehnat shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari	d) doimiy yoki vaqtinchalik shartnoma
5. Mehnat shartnomasining amal qilish muddati	e) har ikki tomonning javobgarligi va huquqlari
6. Mehnat shartnomasini bekor qilish shartlari	f) shartnomani bekor qilish shartlari

1. Siz ish qidiraysiz. Ish joyingizda qanday qulayliklar va sharoitlarni e'tiborga olasiz?

2. Siz ish beruvchisiz. Korxonangizdagi xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzishingiz kerak, qanday qoidalarga amal qilasiz?

3. Korxonangizda ish boshqaruvchilik uchun bo'sh ish o'rnini e'lon qildingiz. E'lon bo'yicha bir nafar o'n yetti yoshli maktab o'quvchisi, bir nafar homilador ayol va bir nafar pensioner ish so'rab keldi. Siz qaysi biri bilan mehnat shartnomasini imzolaysiz? Nima uchun?

4. Mehnat shartnomasining huquqiy asosi nima, deb o'ylaysiz?



Asosiy tushunchalar

Mehnat shartnomasi – bu ish beruvchi va xodim o'rtasida tuziladigan huquqiy hujjat bo'lib, unda mehnat munosabatlarining asosiy shartlari belgilab qo'yiladi.

Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflaridir. Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o'rtasida yozma shaklda tuziladigan kelishuv bo'lib, unga ko'ra xodim muayyan ishni bajarishni zimmasiga oladi. Ish beruvchi esa mehnat sharoitlarini yaratish, ish haqi to'lash va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi lozim.

Mehnat shartnomasi ish beruvchi va xodim tomonidan imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Xodim mehnat shartnomasida belgilangan sanadan e'tiboran mehnat vazifalarini bajarishga kirishishi shart.





Yodda tuting

Mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish, shuningdek unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish qonunchilikda belgilangan tartibda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksida ro'yxatdan o'tkazilishi shart.

"Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan foydalanish barcha shaxslar uchun bepuldir. Mehnat munosabatlariga oid hujjatlarni rasmiylashtirishda mazkur tizimdan foydalanish barcha shaxslar uchun majburiydir. my.mehnat.uz sayti orqali mehnatga oid ko'plab huquqiy harakatlarni amalga oshirish mumkin.



Qonun belgilaydi

Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo'lgan kamida ikki nusxada yozma (qog'ozda yoki elektron) shaklda tuzilib, ularning har biri taraflar tomonidan imzolanadi.

Elektron shakldagi mehnat shartnomasi qonunchilikda belgilangan tartibda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat majmuyida rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 106-modda



Ishga joylashishda quyidagi hujjatlar talab etiladi:

pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-karta, o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma;

oxirgi ish joyi bo'yicha tasdiqlangan qog'oz shaklidagi mehnat daftarchasi yoki elektron mehnat daftarchasidan ko'chirma (bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno);


harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar uchun tegishliligiga ko'ra harbiy guvohnoma yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma;

oliy yoki o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotini tamomlaganligi to'g'risidagi diplom, yoki ishga oid guvohnoma (sertifikat) yoxud boshqa tegishli hujjat;

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR).



Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini qanday aniqlash mumkin?






Yodda tuting

Mehnat shartnomasiga qonunchilikka zid shartlar kiritilishi shartnomaning to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'ladi. Mehnat shartnomasining mazmunida xodimning holatini mehnat to'g'risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlar kiritilsa, mehnat shartnomasining mazkur qismi haqiqiy emas deb topiladi.

Ammo unutmaslik lozimki, mehnat shartnomasi ayrim shartlarining haqiqiy emas deb topilishi mehnat shartnomasining umumiy yuridik kuchiga ta'sir etmaydi. Bu mehnat shartnomasining qisman haqiqiy emas deb topilishiga misol bo'la oladi. Umuman olganda, bunday holatlar yuz bermasligi uchun xodimlar mehnat shartnomasini imzolashdan avval uning shartlari bilan yaqindan tanishib chiqishlari lozim. Aks holda, xodimlarning huquqlari ish beruvchilar tomonidan buzilishi kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.



Xulosa qiling

Xodimni boshqa ishga doimiy o'tkazishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Bu borada mehnat shartnomasini o'zgartirish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazishda esa aniq muddat belgilanishi kerak.

Mehnat shartnomasi o'zgartirilganligini qonunga xilof deb hisoblovchi xodim o'zi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi o'zgartirilganligi ustidan shikoyat qilishga haqli.

Agar mehnat sharoitlarining qonunga xilof deb e'tirof etilgan o'zgarishlari xodimning mehnatga haq to'lash miqdori kamayishiga olib kelgan bo'lsa, xodimning o'ziga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash haqidagi talablari sud tomonidan qanoatlantiriladi.

Agar mehnat shartnomasi qonunga xilof ravishda o'zgartirilganligi munosabati bilan xodimga ma'naviy yoki jismoniy zarar yetkazilgan bo'lsa, xodimning o'ziga yetkazilgan ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish haqidagi talablarini sud qanoatlantirishi mumkin.



Fikrimizni tasdiqlaymiz

Demak, xodim mehnat shartlarini o'zgartirishni talab qilishga haqlidir va bunday ariza uch kundan kechiktirmay ish beruvchi tomonidan ko'rib chiqilishi shart.

Mehnat shartlarini o'zgartirish haqidagi talab rad etilgan taqdirda, rad etish sababi yozma shaklda ma'lum qilinishi shart.

Mehnat shartlarini rad etganlik ustidan tegishli organlarga shikoyat qilish mumkin.

Izlanishda davom eting

Quyida keltirilgan sud ishi bilan tanishib chiqing. Holatni muhokama qiling.

Shaxsiy xulosalaringizni ishlab chiqing.

1997-yilda mehnat munosabatlariga oid "Vizcaino Microsoft korporatsiyasiga qarshi sud ishi" bo'lib o'tgan. Unda "Microsoft" korporatsiyasi mag'lub bo'lib, Donna Vizcainoning da'vosi qanoatlantirilgan.

Nizo qanday kelib chiqqan edi?

"Microsoft" korporatsiyasi Vizcaino va uning jamoasi bilan xizmat ko'rsatish shartnomasi tuzadi. Biroq shartnoma shartlarini bajarishda "Microsoft" korporatsiyasi Vizcaino va uning jamoasiga mehnat shartnomasida belgilanadigan talablarni qo'yadi. Misol uchun ish vaqti, dam olish vaqti, mehnat majburiyatlari yuklanadi. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar esa xizmat ko'rsatish shartnomasidan kelib chiqadi.

Vizcaino va uning jamoasi bu holatdan norozi bo'lib, sudga murojaat qiladi.

Sud "Microsoft" kompaniyasi tomonidan Vizcaino va uning jamoasini mustaqil xizmat ko'rsatuvchi sifatida tasniflashini qonunchilikka zid deb topadi. Ular kompaniya xodimlarining maqomiga tenglashtiriladi. Kompaniya Vizcaino va uning jamoasi a'zolariga xodimlarga taalluqli bo'lgan imtiyozlar, rag'bat va qo'shimcha to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi. Shu sababli, mehnat shartnomasi va xizmat ko'rsatish shartnomalarini o'zaro farqlab olish talab etiladi.




4-DARS

ISH VAQTI VA DAM OLISH VAQTI

Faollashtiruvchi savollar

1. Rasmlarga e'tibor bering. Ularning qay birida har kungi ishning davomiyligi aks ettirilgan?
2. Olti kunlik ish haftasida xodim bir kunda necha soat ishlashi kerak? Qaysi rasmda olti kunlik ish haftasida har kungi ishning (smenaning) davomiyligi keltirilgan?
3. Tungi vaqtdagi ishning davomiyligi qaysi vaqt oralig'ida deb o'ylaysiz?
4. Rasmlarning qay birida tungi vaqtdagi ishning davomiyligi ko'rsatilgan?
5. Besh kunlik ish haftasida xodim bir kunda necha soat ishlaydi? Qaysi rasmda besh kunlik ish haftasida har kungi ishning (smenaning) davomiyligi keltirilgan?
6. Bayram kunlari arafasida xodimlar uchun ish vaqti kamida necha soatga qisqartirilibilishini bilasizmi?



1



2



3

Asosiy tushunchalar

Ish vaqti – bu xodim mehnat shartnomasi yoki qonunchilik bilan belgilangan tartibda o'z xizmat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt davridir.

Xodim ichki mehnat tartib-qoidalariga, smenalarga bo'linib ishlash jadvallariga, boshqa ichki hujjatlarga yoki mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq mehnat majburiyatlarini qaysi vaqt mobaynida bajarishi kerak bo'lsa, o'sha vaqt ish vaqtidir.

Yodda tuting

Ish beruvchi tomonidan xodimni belgilangan ish vaqti davomiyligidan tashqari ishga jalb etishi ish vaqtidan tashqari ish deb hisoblanadi.


Ish vaqtidan tashqari ishning davomiyligi xodim uchun surunkasiga ikki kun davomida to'rt soatdan (mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda – bir kunda ikki soatdan) va yiliga bir yuz yigirma soatdan oshmasligi kerak.

Ish beruvchi xodimning ish vaqtidan tashqari ishining davomiyligi aniq hisobga olinishini ta'minlashi shart. Ish vaqtidan tashqari ishning soatlari miqdorini aniqlash tartibi ish vaqtini hisobga olish turiga bog'liqdir. Xodimning xohishiga ko'ra ish vaqtidan tashqari ish uchun oshirilgan haq to'lash o'rniga ish vaqtidan tashqari ishlab berilgan vaqtning davomiyligiga muvofiq keladigan qo'shimcha dam olish vaqtini berish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin.



Soat 22:00 dan to soat 6:00 gacha bo'lgan vaqt tungi vaqt hisoblanadi.

Tungi vaqtdagi, shuningdek ko'p smenali rejimdagi ish uchun ish haqiga doir qo'shimcha to'lovning aniq miqdori ichki hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida belgilanadi.



? Har kungi ishning (smenaning) davomiyligi qanday?

Olti kunlik ish haftasida – yetti soatdan oshishi mumkin emas.

Besh kunlik ish haftasida – sakkiz soatdan oshishi mumkin emas.

15–16 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun – olti kunlik ish haftasida – to'rt soatdan, besh kunlik ish haftasida – besh soatdan oshishi mumkin emas.

16–18 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun esa olti kunlik ish haftasida – olti soatdan, besh kunlik ish haftasida – yetti soatu o'ttiz daqiqadan oshishi mumkin emas.

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar yoki noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar uchun kunlik ishning (smenaning) davomiyligi olti kunlik ish haftasida – olti soatdan, besh kunlik ish haftasida – yetti soatu o'ttiz daqiqadan ortib ketmasligi kerak.





Ta'tillarning turlari

Har yilgi mehnat ta'tili

Har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomiyligi yigirma bir kalendar kunni tashkil etadi.

Ijtimoiy ta'tillar

Xodimlarga onalik, bolalarni parvarishlash, ta'lim olish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, shuningdek boshqa ijtimoiy maqsadlarda beriladigan ta'tillar.

Ish haqi qisman saqlanadigan ta'til

Mehnat shartnomasi yoki boshqa mehnatga oid ichki hujjatlarda ish haqi qisman saqlanadigan ta'til nazarda tutilishi mumkin. Bunday ta'tilning davomiyligi to'g'risidagi masala taraflarining kelishuviga ko'ra hal etiladi.

Ish haqi saqlanmaydigan ta'til

Xodimning yozma arizasiga ko'ra unga ish haqi saqlanmaydigan ta'til berilishi mumkin bo'lib, uning davomiyligi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra belgilanadi, lekin u o'n ikki oylik davr mobaynida jami uch oydan ortiq bo'lmasligi kerak.





Asosiy tushunchalar

Dam olish vaqti – xodim mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'lgan va o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtdir.

? Dam olish vaqtining qanday turlari mavjud?

ish kuni davomidagi tanaffuslar;
har kungi (smenalar oralig'idagi) dam olish;
dam olish kunlari (har haftalik uzluksiz dam olish);
ishlanmaydigan bayram kunlari;
har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari.

Tarixga nazar

Milodiy 321-yilda Rim imperatori Konstantin I tomonidan chiqarilgan farmon asosida yakshanba kuni dam olish kuni sifatida rasman belgilangan. Bu tarixiy qaror Rim imperiyasida diniy va ijtimoiy hayotda muhim burilish yasagan edi.

Farmonga ko'ra, "Quyosh kuni" (ingliz tilida "Sun day") sharafiga shaharlardagi sudlar, hukumat idoralari va korxonalar ishlamasligi belgilab berilgan.

Qishloqlarda esa zarurat bo'lsa, ishlashga ruxsat berilgan edi.



Izlanishda davom eting

Pandemiya boshida IT-kompaniya xodimasini Zoom orqali 2 daqiqada ishdan bo'shatishgan. U sudga murojaat qilib, ishdan bo'shatish tartibi va sabablari tushuntirilmaganini da'vo qilgan.

Sud uning tarafini oldi, chunki raqamli format ish beruvchining barcha qonuniy kafolatlarni saqlash majburiyatini bekor qilmaydi.

Nima deb o'ylaysiz, yangi texnologiyalar tufayli mehnat qonunchiligi o'zgarishi kerakmi?



MEHNATGA HAQ TO'LASH

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi vaziyatlarga e'tibor qiling va savollarga javob bering.

1. Ahrorjon o'z korxonasida faoliyat olib borayotgan xodimlarga oylik maoshini o'z vaqtida bera olmadi. Shunda xodimlar davlat mehnat inspeksiyasiga murojaat etishdi. *Nima deb o'ylaysiz, bu holatda xodimlar yana qanday choralar ko'rishi mumkin?*

2. Aziza yuz parvarishi vositalari savdosi bilan shug'ullanuvchi xususiy tashkilotda ishlaydi. Uning oylik maoshi sotuvdan tushgan foyda bilan belgilanar edi. Biroq tashkilot direktori kelasi oydan oylik maosh o'rniga Azizaga o'zi sotayotgan mahsulotlardan berilishini aytdi.

Mazkur vaziyatda qanday qonun buzilish holatlari mavjud? Fikringizni asoslang.

3. A'zamjon mehmonxonada ish boshqaruvchi bo'lib ishlaydi. Uning oylik maoshi yigirma million so'm. O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha jismoniy shaxslardan quyidagi soliq va majburiy to'lovlar ushlab qolinadi:

daromad solig'i (12.0 %);

kasaba uyushmasi uchun to'lov (1.0 %);

Soliq va majburiy to'lovlarni chegirib qolganda A'zamjonning qo'lida qancha miqdordagi pul qoladi? Hisoblab chiqing.



Asosiy tushunchalar

Mehnatga haq to'lash – ish beruvchi tomonidan xodimga uning mehnati uchun to'lovlar belgilash va ularni amalga oshirishga oid bo'lgan munosabatlar tizimidir.

Ish haqi milliy valyutada to'lanadi. Mehnatga natura shaklida haq to'lash cheklanadi. Ish haqini qarz majburiyatlari va tilxatlar tarzida to'lash taqiqlanadi.



Mehnat shartnomasida belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilanganiga nisbatan yomonlashtirilishi mumkin emas.

Mehnatga haq to'lash miqdori biror-bir eng ko'p miqdor bilan cheklanmaydi.



Xodimlarning mehnatiga haq to'lash sohasidagi asosiy kafolatlar:

- mehnatga haq to'lash sohasida kamsitishni taqiqlash;
- teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng miqdorda haq to'lanish;
- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilash;
- ish beruvchining o'z moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, xodimlar tomonidan bajarilgan ish uchun haq to'lashni amalga oshirish majburiyatini mustahkamlab qo'yish;
- mehnatga natura shaklida haq to'lanishini cheklash;
- ish haqini to'lash tartibi va muddatlariga doir talablarni tartibga solish;
- ish vaqtidan tashqari, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlari, tungi vaqtda ishlash uchun mehnatga haq to'lash;
- budjet tashkilotlari xodimlari uchun mehnatga haq to'lashning davlat tariflarini belgilash;
- xodimning ish haqidan ushlab qolish miqdorini cheklash;
- xodimning ishlab topilgan mablag'larni erkin tasarruf etishini cheklashni taqiqlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- xodimlarga ish haqi o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash.



Qonun belgilaydi

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Mehnat kodeksiga ko'ra mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasining butun hududida bir vaqtning o'zida belgilanadi hamda tashkiliy-huquqiy shakllaridan, mulkchilik shakllaridan va idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, barcha ish beruvchilar uchun majburiydir.




Yodda tuting

Mehnat haqining miqdori ish beruvchi va xodimning o'zaro kelishuvi bo'yicha belgilanadi. Xodimlarga ish haqi, qoida tariqasida, ular ishlayotgan joyda to'lanadi.

Ish haqini taqiqlangan shakllarda to'laganlik uchun mansabdor shaxslarga ma'muriy jarama belgilangan.

Xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari ichki hujjatda yoki mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi. Ish haqi to'lash muddatlari har yarim oyda bir marta kam bo'lishi mumkin emas.

Ish beruvchi ish haqini, ta'til to'lovlarini va xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni to'lash muddatini buzgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan e'tiboran har bir kechiktirilgan kun uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'sha vaqtda amalda bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foizlar (pullik kompensatsiya) bilan birga to'lashi shart.



Ijodiy faoliyat

Quyidagi vaziyatni muhokama qiling. Fikringizni asoslab bering.
Siz ish beruvchisiz.

KPI (ingliz tilida "key performance indicators" – samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari) tizimini o'rnatish orqali o'z xodimlaringizning ish haqini oshirishni maqsad qilgansiz. Masalan, ish boshqaruvchilarga har bir jalb etgan mijoz uchun ish haqining besh foizi miqdorida qo'shimcha ustamalar belgilashni reja qilmoqdasiz.

Ish beruvchi sifatida xodimlarning qanday samaradorlik ko'rsatkichlari uchun qo'shimcha ustamalar belgilagan bo'lar edingiz?

Samaradorlik ko'rsatkichi	Sotuv bo'limi xodimi	Ish yurituvchi	Hisobchi



Qonun belgilaydi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan o'zga to'lovlarni to'lash uchun pul mablag'lari berishni bankning mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan asossiz ravishda kechiktirish, – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 241⁷-modda

Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlariga bo'lining. Quyidagi jadvalni muhokama qiling. Siz ish beruvchi bo'lganingizda xodimlarga haq to'lashning qaysi shaklidan foydalangan bo'lar edingiz?

Ish haqi shakli

Tavsifi

Afzalliklari

Kamchiliklari

Ishbay

Vaqtbay

Izoh. Ishbay – xodimga bajargan ish miqdoriga qarab haq to'lanishini anglatadi. Vaqtbay – xodimga ish haqi ishlagan vaqti (soat, kun, oy) uchun to'lanadi.

Izlanishda davom eting

Quyida keltirilgan vaziyat bilan tanishib chiqing. Holatni muhokama qiling. Shaxsiy xulosalaringizni ishlab chiqing.

AQSH ayollar futbol jamoasi ularning ish haqi miqdori erkak futbolchilardan keskin farq qilishi gender tengligi prinsiplariga to'g'ri kelmasligini da'vo qilib, 2019-yilda sudga murojaat qilishdi.

Ayollar jamoasi erkaklar jamoasidan ko'ra ko'proq yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, kamroq maosh va mukofot puli olishayotganligidan shikoyat qilishdi.

Ma'lumki, AQSH ayollar futbol jamoasi FIFA ayollar jahon chempionatida eng ko'p g'olib bo'lgan jamoa hisoblanadi. Sudning qaroriga ko'ra, AQSH ayollar futbol jamoasi 24 million dollar kompensatsiya olishgan. Shuningdek, sport qonunchiligida erkak va ayol futbolchilarga bir xil ish haqi va mukofotlar berish tartibi belgilandi.

Ijodiy faoliyat

Siz mehnat huquqi bo'yicha xalqaro ekspertsiz. Toshkentdagi mehmonxona ma'muriyati sizni alohida vazifa bilan chaqirib olgan. Sizga mehmonxonada xizmat ko'rsatish sifatini oshirish vazifasi yuklatilgan. Siz vazifani ado etishni xodimlarni qo'llab-quvvatlashdan boshlamoqchisiz. Quyidagi savollarga javob bering:

Xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlash uchun qanday rag'batlantirish choralarini taklif etasiz? Nima uchun?

Qo'shimcha ish haqini belgilashda adolatni ta'minlash uchun qanday tavsiya berasiz?

Qo'shimcha ish haqini belgilash tartibi qanday hal etiladi? Nima uchun?


INTIZOMIY VA MODDIY JAVOBGARLIK



Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi vaziyatlarga e'tibor qiling va savollarga javob bering.

1. Quyidagi holatlarda qaysi shaxs javobgarlikka tortilishi bo'yicha fikr yuriting:
xodimning ish joyiga sababsiz kech kelishi;
bank jamg'armasini o'g'irlash uchun bostirib kirish;
xodim ish joyida uxlab qolishi oqibatida korxonaga moddiy zarar yetishi;
belgilanmagan hududlarga chiqindi tashlash.
2. Sizningcha, rasmlarning qay birida mehnat munosabatlariga oid intizomiy qilmish holatlari keltirilgan?
3. Javobgarlikning turlari (jinoiy, ma'muriy, fuqaroviy, intizomiy) bo'yicha rasmlardagi holatlarni moslashtiring.
4. Rasmlardagi holatlar bo'yicha moddiy zarar kelib chiqadimi yoki ma'naviy ziyon? Nima uchun? Fikringizni asoslang.



Yodda tuting

Xodim tomonidan o'z mehnat majburiyatlarini qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida g'ayri-qonuniy ravishda bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi intizomiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Agar biror kishi o'z tashkiloti yoki o'quv muassasasidagi ichki tartib-qoidalarni buzsa, unga nisbatan intizomiy choralar qo'llaniladi.

Har bir intizomiy qilmish uchun faqat bitta intizomiy jazo chorasini qo'llanilishi mumkin. Intizomiy jazo chorasini tanlash huquqi ish beruvchiga tegishlidir. Intizomiy jazo chorasini qo'llashda sodir etilgan qilmishning og'ir-yengilligi, uning sodir etilishi holatlari, xodimning avvalgi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi.

Xodimga intizomiy jazo chorasini qo'llash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Xodim buyruq bilan tanishib chiqish huquqiga ega.

O'ziga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llash haqidagi buyruq bilan tanishtirilmagan xodim intizomiy jazosi bo'lmagan deb hisoblanadi.



Asosiy tushunchalar

Intizomiy javobgarlik – bu xodim tomonidan ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaganligi uchun qo'llaniladigan huquqiy javobgarlik turi.

Agar xodim mehnat intizomi qoidalarini buzsa, ish beruvchi xodimga nisbatan intizomiy jazo qo'llashi mumkin. Umumiy intizomiy javobgarlikda intizomiy jazolarning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ish beruvchi holatdan kelib chiqib xodimga jazo choralarini belgilaydi.


? Intizomiy jazolarning qanday turlari mavjud?



Hayfsan



Jarima



Mehnat shartnomasini bekor qilish

Xulosa qiling

Nima uchun qonunchilikda quyidagi qoida o'rnatilgan? Shaxsiy xulosalaringizni ishlab chiqing.

Intizomiy jazoning amal qilish muddati u qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak. Agar intizomiy jazo qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xodimga yangi intizomiy jazo qo'llanilmasa, u intizomiy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi.

Ish beruvchi intizomiy jazoni o'z tashabbusiga ko'ra, xodimning bevosita rahbari, kasaba uyushmasi qo'mitasining iltimosnomasiga, shuningdek xodimning iltimosiga ko'ra, bir yil o'tguniga qadar muddatidan oldin olib tashlash huquqiga ega. Intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Qonun belgilaydi

Intizomiy jazo intizomiy qilmish aniqlanganidan keyin darhol, biroq aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llaniladi, bunda xodim vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lgan yoki ta'tilda bo'lgan davr hisobga olinmaydi. Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi dalolatnoma komissiya tomonidan imzolangan kun xizmat tekshiruvi natijalari bo'yicha aniqlangan intizomiy qilmish aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Intizomiy jazo intizomiy qilmish sodir etilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay, tafish yoki moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra esa, u sodir etilgan kundan e'tiboran ikki yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. Ushbu muddatlarga jinoyat ishini yuritish vaqti kiritilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 314-modda



Asosiy tushunchalar

Moddiy javobgarlik – bu shaxs tomonidan yetkazilgan moddiy zarar uchun javob berish majburiyatidir. Agar xodim o'z harakati yoki beparvoligi tufayli tashkilot yoki ish beruvchiga zarar yetkazsa, u bu zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi. Xodim ish beruvchiga to'g'ri-dan-to'g'ri yetkazilgan haqiqiy zararining o'rnini qoplashi shart.

Ish beruvchi ham o'z navbatida xodimga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplashi shart. Bu holatlar qonunchilikda belgilangan. Agar ish beruvchining qonunga xilof harakatlari bilan xodimga jismoniy yoki ma'naviy ziyon yetkazilgan bo'lsa, xodimga majburiy to'lovlar amalga oshiriladi.



Ish beruvchi quyidagi hollarda xodimga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplaydi:

xodim mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum qilinsa

xodimning hayoti yoki sog'lig'iga ziyon yetkazilganda

xodimga ish haqi to'lash va unga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlar kechiktirilsa

xodimning mol-mulkiga ziyon yetkazilganda



Tarixga nazar


Quyida tarixga aloqador ma'lumot bilan tanishib chiqing.

Qadimgi Rimda xodimlarga jarima jazosini qo'llash haqida o'ylab ko'ring.

“Salarium” atamasi qadimgi Rim davriga borib taqaladi va bu so'z lotincha “sal” – ya'ni tuz so'zidan olingan. Rimda tuz juda qimmat va muhim mahsulot hisoblangan. Ayniqsa, askarlar va davlat xizmatchilariga xizmatlari evaziga beriladigan mukofot, yoki ish haqi sifatida “salarium” taqdim etilgan.

Dastlab, bu mukofot to'g'ri-dan-to'g'ri tuz shaklida bo'lgan yoki tuzning narxiga muvofiqlashtirilgan. Vaqt o'tishi bilan “salarium” tushunchasi kengayib, har qanday xizmat yoki mehnat evaziga to'lanadigan haq ma'nosini ola boshladi. Aynan shu so'z hozirgi ingliz tilidagi “salary” – ya'ni oylik ish haqi atamasining ildizidir.

Rim imperiyasi davrida salarium orqali ish haqi olish mehnat munosabatlarini huquqiy lashtirishga zamin yaratdi. Bu tizim keyinchalik Yevropa davlatlari orqali butun dunyoga tarqaldi va ish haqi to'lashning muhim tarixiy bosqichi sifatida e'tirof etildi. Shunday qilib, salarium tushunchasi nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy jihatdan ham mehnat munosabatlarining shakllanishida asosiy omillardan biri bo'lgan.





Izlanishda davom eting

Quyida keltirilgan vaziyat bilan tanishib chiqing. Ushbu holatda qanday javobgarlik kelib chiqishini yoningizdagi sinfdoshingiz bilan muhokama qiling.

2013-yilda g'aroyib sud ishi bo'lib o'tgan. Bir bank xodimi ish joyida ish vaqtidagi charchoq sababli kompyuter qarshisida qisqa vaqtga uxlab qolgan.

Shu vaqt ichida u kompyuter klaviaturasida tasodifan noto'g'ri tugmalarni bosib, bank mijozlaridan birining hisobiga 222 million yevro miqdorida pul o'tkazib yuborgan.

Odatda, bank tizimlari bunday katta miqdordagi pul o'tkazmalarini tasdiqlash uchun qo'shimcha xavfsizlik choralariga ega bo'lishi kerak. Biroq, ushbu holatda xatolik darhol aniqlanmagan va tizim avtomatik ravishda pulni mijoz hisobiga o'tkazgan.

Xodimning xatosi keyinchalik ichki tekshiruv orqali aniqlangan. Bank rahbariyati tezkor harakat qilib, noto'g'ri o'tkazilgan mablag'ni qaytarishga muvaffaq bo'lgan. Bank xodimni sudga berib undan moddiy zararni undirib olishga harakat qilgan.

Sud jarayonida asosiy e'tibor xodimning beparvoligi sababli ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni undirishga qaratilgan. Ammo sud xodimni aybsiz deb topadi.

Aksincha, sud bank rahbariga nisbatan jazo choralarini qo'llash bo'yicha qaror chiqaradi. Sud qarorida qayd etilishicha, bank rahbari tegishli xavfsizlik choralarini bank tizimiga joriy etmagan. Bu voqeadan so'ng banklar faoliyatida to'lov va o'tkazmalar tizimidagi tekshiruv chorolari kuchaytirilgan.



Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlarga bo'lining.

Quyidagi jadvalni daftaringizga ko'chiring. Keltirilgan vaziyatlar ro'y berganda qanday javobgarlik choralari vujudga kelishini tahlil eting.

Vaziyatlar	Moddiy javobgarlik	Intizomiy javobgarlik
Ishga kech qolish		
Ish joyida ehtiyotsizlik tufayli zarar yetkazish		
Ish vaqtida shaxsiy ishlarga vaqt ajratish		
Xodimga topshirilgan mulkka qasddan zarar yetkazish		
Ish vaqtida mast qiluvchi ichimliklarni iste'mol qilish		




7-DARS

AYRIM TOIFADAGI XODIMLAR MEHNATINI TARTIBGA SOLISH



Faollashtiruvchi savollar

1. Qanday shaxslarga mehnat qonunchiligida imtiyoz va qo'shimcha kafolatlar berilishi kerak deb hisoblaysiz?
2. Ayollarga nisbatan mehnat qonunchiligida qanday qo'shimcha imtiyozlar berilgan? Voyaga yetmagan shaxslargachi?
3. Rasmlarga e'tibor bering. Ularning qay birida milliy qonunchilik talablari buzilgan deb o'ylaysiz?
4. Voyaga yetmagan bolalar qanday ishlarga jalb etilishi mumkin emas?
5. Nogironligi bo'lgan shaxslar qanday ishlarda mehnat faoliyati olib borishi mumkin?
6. Ayollar, voyaga yetmagan yoki nogironligi bo'lgan shaxslarga berilgan qo'shimcha imtiyozlarni taqdim etmaslik qanday javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin?



Yodda tuting

Ayrim shaxslar hamda ba'zi kasb egalari uchun mehnat qonunchiligida biroz farqli qoidalar belgilangan. Ya'ni ular uchun odatdagi mehnat qoidalari to'liq qo'llanilmasligi yoki qo'shimcha imtiyoz va kafolatlar qo'llanilishi mumkin.

Masalan, konchilarning mehnat sharoiti xavfli bo'lgani uchun ularga qo'shimcha dam olish vaqti yoki qisqartirilgan ish vaqti taqdim etiladi. Shuningdek, voyaga yetmagan yoki nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham alohida mehnat qonunchiligi qo'llaniladi.

Alohida toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solishda bir qator muhim masalalar mavjud. Eng avvalo, bunday xodimlar uchun maxsus mehnat sharoitlari belgilanadi. Masalan, voyaga yetmaganlar tungi vaqtlarda ishlashi, og'ir yoki xavfli ishlarga jalb etilishi mumkin emas. Nogironligi bo'lgan shaxslar va homilador ayollar uchun esa yengillashtirilgan ish sharoitlari, qo'shimcha dam olish va tibbiy ko'rikdan o'tish kabi imkoniyatlar beriladi.

Homilador ayollarga nisbatan ko'plab kafolatlar ham mavjud. Masalan, ayollarni homiladorlik yoki o'n to'rt yoshga to'lmagan farzandi bor davrida tungi smenaga yoki xizmat safariga yuborish qonun bilan cheklangan.



Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari tasnifi

Mehnat faoliyatining sohalari bo'yicha (pedagoglar va tibbiyot xodimlari, transport xodimlari)

Mehnat sharoitlarining og'irligi yoki zararliligi bo'yicha (konchilik yoki yerosti ishlari)

Tabiiy-iqlim sharoitlariga ko'ra (tog'li yoki cho'l hududlaridagi xodimlar)

Ayrim toifadagi shaxslar bo'yicha (ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar)

Xodim va ish beruvchi o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlar (masofadan turib ishlash)



Qonun belgilaydi

Nogironligi bo'lgan shaxslar faqat dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tganidan keyin ishga qabul qilinadi va keyinchalik har yili majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazib turilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 426-modda



Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlarga bo'lingan holda quyidagi ma'lumotni muhokama qiling.

Shvetsiyada oilada farzand dunyoga kelganda 480 kunlik "ota-ona ta'tili" beriladi. Ota-onaning har biri ta'tilni teng bo'lib olishi va navbat bilan bola parvarishida ishtirok etishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, erkaklar ham o'z farzandlarini parvarish qilish vaqti uchun maxsus huquqqa ega. Ularning ota sifatidagi roli qonunchilik bilan mustahkamlangan.

Nima deb o'ylaysiz, O'zbekistonda ham otalarga bola parvarishi uchun ta'til beriladimi? Fikringizni O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 405-moddasi bilan asoslang.




Tarixga nazar

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ilk Mehnat kodeksi 1995-yilda qabul qilinib, 1996-yilda kuchga kirgan.

Ammo yillar o'tishi bilan jamiyat hayotida mehnat sohasi rivojlanib bordi. Shuningdek, mehnat huquqiga oid xalqaro shartnoma normalarini O'zbekiston qonunchiligiga joriy etish maqsadida yangi Mehnat kodeksi ishlab chiqildi.

Amaldagi Mehnat kodeksi 2022-yilda qabul qilindi. 2023-yilda esa kuchga kirdi.





Ayrim shaxslar mehnat faoliyatining kafolatlari



Homiladorligi yoki farzandlari borligi sababli ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish yoki ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

Homilador ayollar yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkaziladi.

Homilador ayollarni yillik mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

Ikki yoshga to'lmagan bolaning onasiga bolani ovqatlantirish uchun qo'shimcha tanaffuslar beriladi.

Uch yoshga to'lmagan bolaning onasiga haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi.



Voyaga yetmagan shaxslarning tungi kafe va klublarda, spirtli ichimliklarni, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish hamda sotishda ishlashi taqiqlanadi.

O'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga davomiyligi kamida o'ttiz kalendar kun bo'lgan yillik mehnat ta'tili beriladi.

Voyaga yetmagan xodimlarga qisqartirilgan ish vaqtida ham to'liq ish vaqtidagi xodimlar bilan bir xil miqdorda ish haqi to'lanadi.

Ish beruvchining tashabbusi bilan voyaga yetmagan xodimning mehnat shartnomasini bekor qilish mahalliy mehnat organining roziligi bilan amalga oshiriladi.



Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan ularga sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatma bo'lgan ishlarda foydalanish taqiqlanadi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

Nogironligi bo'lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishga, tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga hamda dam olish va ishlamaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishga faqat ularning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga davomiyligi kamida o'ttiz kalendar kundan iborat yillik mehnat ta'tili beriladi.



Qonun belgilaydi

Ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan kafolatlar darajasining pasayishiga, ularning huquqlari cheklanishiga, intizomiy va (yoki) moddiy javobgarligi oshishiga olib keladigan mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari faqat ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 391-modda

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar faqat dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyin ishga qabul qilinadi va keyinchalik ular o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar har yili majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 414-modda



Izlanishda davom eting

Quyida keltirilgan vaziyat bilan tanishib chiqing. Holatni muhokama qiling. Shaxsiy xulosalaringizni ishlab chiqing.

Qatar mehnat qonunchiligiga ko'ra, ish beruvchilar ishga qabul qilishda avvalo Qatar fuqarolariga ustunlik berishlari shart. Ya'ni ish beruvchi avval qatarlik nomzodlarni ish bilan ta'minlashga harakat qilishlari kerak. Agar mos keladigan fuqaro topilmasa, ish beruvchilar Mehnat boshqarmasining ruxsatisiz, chet ellik xodimni ishga qabul qila olmaydi.

Bundan tashqari, Qatar hukumati fuqarolarini energetika, bank ishi va davlat xizmatlari sohalarida ko'proq ish bilan ta'minlashga harakat qiladi. Davlat o'z fuqarolariga yuqori ish haqi, pensiya, ijtimoiy ta'minot va boshqa imtiyozlarni taqdim etadi. Ammo chet ellik ishchilar esa bu imkoniyatlardan to'la foydalana olmaydi.



Tarixga nazar

Mamlakatimizdagi ilk ayol sudya va huquqshunos olim haqidagi quyidagi matn bilan tanishib chiqing. Ayollarning huquq sohasidagi faoliyatida qanday imkoniyatlar mavjud ekanligini muhokama qiling.

Xadicha Sulaymonova 1913-yilda Andijonda tug'ilgan. Yoshligidan tirishqoqlik ko'rsatib, huquqshunoslikdan ta'lim olgan.

Yuridik oliygohni tamomlagach, xalq sudyasi lavozimida faoliyat boshlagan. Keyinchalik mamlakat Oliy sudining a'zosi, hattoki Adliya vaziri ham bo'lgan. U huquqshunoslik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lgan birinchi o'zbek ayoli edi. 1952-yilda professor unvonini olgan. 1956-yilda Fanlar akademiyasining a'zosi etib saylangan. 1964-yildan esa mamlakat Oliy sudi raisi lavozimida ishlagan. Shuningdek, u "xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni bilan taqdirlangan.

Xadicha Sulaymonova 1965-yilda Toshkentda vafot etgan.





8-DARS

MEHNAT MUHOFAZASI



Faollashtiruvchi savollar

Quyidagilarga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

1. Mehnat muhofazasi haqida qanday tasavvurga egasiz? Bu tushuncha haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.

2. Quyida keltirilgan tashkilotlarga qanday masalalar bilan murojaat etish mumkin?

3. Ish beruvchilar mehnat muhofazasi qonunchiligiga rioya etmasa, qaysi davlat tashkilotiga murojaat qilish mumkin?

Berilgan savollar asosida quyidagi infografikadan to'g'ri keladigan javobni toping:

1. Qay birida bepul ta'lim olish, kasbga tayyorgarlik ko'rish va hatto ish bilan ta'minlash imkoniyati mavjud?

2. Qay birining yordamida bo'sh ish o'rinlari uchun ro'yxatdan o'tish mumkin?

3. Qay biri orqali mehnat daftarchasini rasmiylashtirish mumkin?

Yagona milliy mehnat tizimi

advice.uz – huquqiy axborot portali

O'zbekiston Respublikasining
hukumat portali

Respublika Kasbiy ko'nikmalar
markazi

Yagona interaktiv davlat
xizmatlari portali

Migratsiya agentligi





Yodda tuting

Mehnatni muhofaza qilish deganda xodimlarning ish joyida xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun qabul qilingan qoidalar va choralar tushuniladi. Bu tizim xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, jarohatlanish va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan.

Ish beruvchilar xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlarini ta'minlashi shart.

Ish beruvchi o'z mablag'lari hisobidan xodimlarni mehnatni muhofaza qilishning belgilangan talablariga muvofiq shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishga majbur.

O'z mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoki sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rni ish beruvchi tomonidan qoplanadi.

Xodimlar mehnatni muhofaza qilish talablari buzilganligi oqibatida o'z hayoti va sog'lig'i uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda bunday xavf bartaraf etilguniga qadar ishlarni bajarishni rad etish huquqiga ega. Bunda intizomiy javobgarlik kelib chiqmaydi.

Davlat mehnat inspektorlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga hamda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini va tekshiruvini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining hududida ish beruvchilarni rejali hamda rejadan tashqari tekshiruvlardan o'tkazadi.



Qonun belgilaydi

Mehnat inspeksiyasi ish beruvchilar tomonidan mehnat to'g'risidagi qonunchilik, aholining bandligi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilik, mehnat to'g'risidagi boshqa huquqiy hujjatlar, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini hamda mehnat standartlari talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini va tekshiruvini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 535-modda



Ish joylariga nisbatan qanday talablar qo'yiladi?

Ish joyi uning funksional maqsadiga va mehnat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish talablariga mos bo'lishi kerak.

Ishlash uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar mazkur turdagi asbob-uskunalar uchun belgilangan xavfsizlik normalariga mos bo'lishi shart.

Xodimlarning binodan chiqishi uchun avariya yo'llari va chiqish joylari belgilangan bo'lishi kerak.

Agar ish joylari ishning xususiyati tufayli xodim uchun xavf mavjud bo'lgan xavfli zonalarda joylashgan bo'lsa, bunday joylar begona kishilarning bu zonalariga kirishiga to'siq bo'ladigan qurilmalar bilan jihozlanishi kerak.



Davlat mehnat inspektorlarining qanday vazifalari mavjud?

xodimlarning huquqlari va xavfsizligi ta'minlanayotganini tekshirish; ish beruvchilar tomonidan mehnat qonunlariga rioya qilinishini nazorat qilish; agar qoidabuzarlik aniqlansa, uni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish.

Mehnat inspektorlarining tekshiruvlari qonuniy tartibda amalga oshiriladi va xodimlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgandir.

Davlat mehnat inspektorlarining tekshiruvlar davomida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalari ish beruvchilar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Agar texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etmaslik oqibatida xodimga o'rtacha og'ir yoki og'ir darajadagi tan jarohati yetsa, O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, bunga mas'ul shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Bu degani, mehnat xavfsizligi qoidalarini buzgan mas'ul shaxs sud tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilishi va unga nisbatan jarima, axloq tuzatish ishlari yoki hatto ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi mumkin.

Ish beruvchilar va mas'ul shaxslar xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishlari shart.



Xulosa qiling

Demak, davlat mehnat inspektorlari ish beruvchilarning mehnat to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qiladi. Ular O'zbekiston hududida rejali yoki rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazib, mehnat sharoitlarini tekshiradi.



Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlariga bo'lingan holda quyidagi vazifalarni bajarishga harakat qiling.

1. Kichik guruhlarda ishleng. Davlat mehnat inspeksiyasining rasmiy veb-sahifasi orqali mehnat muhofazasiga oid qonunchilik buzilishi ustidan murojaat matnini ishlab chiqing.

2. Murojaatda mehnat muhofazasiga oid qanday qoida buzilayotganligini izohlang. Tasavvuriy vaziyatni batafsil tushuntirib bering.

3. Bu boradagi huquqlari buzilayotgan yaqin qarindoshingizning shaxsiy ma'lumotlarini kiriting.

4. Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan murojaatga nisbatan qanday munosabat bildirilishini tushuntirib bering.

5. Agar davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan tegishli choralar ko'rilmasa, qaysi davlat organiga murojaat qilish mumkinligini asoslab bering.

6. Xulosa yozing.






Tarixga nazar

Abu Ali ibn Sino mehnat muhofazasi sohasida muhim ilmiy asoslarni yaratgan. Uning ilmiy ishlarida “mehnat muhofazasi” tushunchasi aynan qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, yashash sharoitlari hamda mehnat qilish muhiti insonlarning sog‘lig‘iga bevosita ta‘sir etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Olim tibbiyotda kasalliklarning oldini olish, gigiyena va sanitariya qoidalarini targ‘ib qilgan. U ish joylarida xavfsiz va toza sharoitlar muhimligini e‘tirof etib, kasalliklarning oldini olish uchun profilaktik choralar zarurligini ta‘kidlagan.

“Tibbiyotning asosiy vazifasi – inson sog‘lig‘ini saqlash, agar kasallik paydo bo‘lgan bo‘lsa, bu kasallikni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va ularni yo‘qotish orqali sog‘liqni tiklashdan iborat”.

“Tib qonunlari” asaridan



Izlanishda davom eting

Mehnat muhofazasiga oid Yaponiya qonunchiligi bilan tanishib chiqing.

“Xodimlarga psixologik yordam ko‘rsatish lozim” deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?

Yaponiyaning “Sanoat xavfsizligi va sog‘liqni saqlash to‘g‘risida”gi qonuni (“Industrial Safety and Health Act”) mamlakatdagi mehnat muhofazasi talablarini qat‘iy tartibga soladi.

Mazkur qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida korxonalariga yiliga kamida bir marta barcha xodimlarning stress darajasini tekshirish majburiyati yuklandi.

Tekshiruv natijalariga ko‘ra, yuqori stressga ega xodimlar bepul psixologik maslahat va zarurat bo‘lsa, tibbiy yordam olish huquqiga ega.


Ish beruvchilar stress tahlili natijalari asosida ish sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rishi shart, aks holda ularga ma‘muriy choralar yoki jarimalar qo‘llanilishi mumkin.



IJODIY FAOLIYAT

1-topshiriq.

Krossvordning javoblarini toping.



Gorizontal →

6. Ish beruvchi va xodim o'rtasida tuziladigan huquqiy hujjat
7. Xodimlar mehnatiga vaqt birligidan kelib chiqib haq to'lash
9. Xodimlarning huquqlari va xavfsizligi ta'minlanishini tekshiruvchi davlat mansabdor shaxsi
10. Xodimlar mehnatiga haq to'lash mezonlaridan biri

Vertikal ↑

1. Shaxs ishsiz qolganda, davlat tomonidan vaqtinchalik to'lab turiladigan moddiy yordam
2. Ish beruvchilar tomonidan ta'minlanadigan mehnat muhofazasi talablaridan biri
3. Mehnatga haq to'lashning cheklangan shakli
4. Mamlakatimizda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilovchi davlat mansabdor shaxsi
5. 2023-yilda kuchga kirgan mehnat munosabatlari tartibga soluvchi asosiy hujjat
8. Xodimga intizomiy jazo chorasini qo'llash bo'yicha ish beruvchining hujjati



2-topshiriq.

Tasavvur qiling. Siz huquqshunossiz. Quyidagi shaxslarga huquqiy maslahat bering.

1-vaziyat. Javohir maktabni bitirgach, ishga joylashmoqchi edi. Avval, internet orqali ish qidirdi. Malakasi yetarli darajada emasligi tufayli ko'plab tashkilotlardan rad javobini oldi. *Javohir qaysi davlat tashkilotiga murojaat etib o'z malakasini hech qanday to'lovlarsiz oshirishi mumkin?*



2-vaziyat. Akobirjon maktabdan bo'sh vaqtlarida onlayn mehnat qilar edi. Bu bilan ota-onasiga moddiy ko'mak berib, tayyorlov kurslari uchun mablag' to'plar edi. Uning onlayn ish boshqaruvchisi Akobirjonning yoshi kichikligi tufayli boshqalardan ko'ra kamroq maosh tayinladi. *Akobirjon bu haqida qaysi davlat organiga shikoyat qilish mumkinligini o'ylay boshladi.*

3-vaziyat. Bilol qurilish tashkilotida ishlar edi. Korxonada rahbariyati xavfsizlik holatidan kelib chiqib, har bir xodim maxsus bosh kiyim sotib olishi majburiy ekanligini e'lon qildi. Bilol maxsus bosh kiyim unga qimmatlik qilishini aytib, korxonada talabini bajarmadi. Korxonada rahbari Bilol bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qildi. *Bilol buzilgan huquqlarini qanday qilib tiklashi mumkin?*



3-topshiriq.

Quyidagi vaziyatga huquqiy yechim bering.

Madina 2023-yil dekabrda boshlab "EduSoft" MChJda masofaviy grafik dizayner sifatida ishlay boshladi. Mehnat shartnomasida uning ish vaqti, ish haqi miqdori, vazifalari va topshiriqlarni topshirish tartibi aniq belgilangan edi. U har hafta o'z ishini elektron pochta orqali taqdim etardi.

2024-yil may oyida kompaniya ichki siyosatini o'zgartirib, barcha xodimlar ofisda ishlashi kerakligini e'lon qildi. Madina bu qarorni noto'g'ri deb hisoblab, mehnat shartnomasida faqat masofaviy ish shakli ko'rsatilganini bildirdi. Oradan bir hafta o'tib, ish beruvchi unga "ishga kelmagani" sababli mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida buyruq chiqardi.


Madina esa bu qaror ustidan sudga murojaat qildi.

Sudga yo'llagan da'vo arizasida huquqlari buzilganini asoslab berdi.



4-topshiriq.

Quyidagi so'zli boshqotirmadan mehnat huquqiga oid so'z va terminlarni toping. Ularning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

Yo'riqnoma. So'zlarni qidirishda turli yo'nalishlarda () harakatlanish mumkin. Aniqlangan so'zlarni jadval ostidagi javoblar ro'yxatiga kiriting.

I	R	T	I	X	M	L	Q	N	I	P	T
N	E	I	SH	B	E	R	U	V	CH	I	K
S	H	F	V	T	H	O	Y	P	O	SH	K
P	A	G	A	B	N	B	Y	R	T	A	O
E	Y	I	Q	J	A	R	I	M	A	R	D
K	F	I	T	I	T	S	O	D	'	T	E
S	S	O	I	J	H	V	R	D	T	N	K
I	A	I	S	M	U	D	D	A	I	O	S
Y	N	N	Y	I	Q	J	G	P	L	M	O'
A	M	P	O	Y	U	A	X	T	E	A	S
I	T	O	SH	K	Q	N	T	N	D	I	S
I	SH	J	O	Y	I	S	X	O	D	I	M

Javoblar ro'yxati:

- | | |
|------------------|------------------|
| 1. T..... | 6. H..... |
| 2. I..... B..... | 7. I..... J..... |
| 3. YA | 8. J..... |
| 4. X..... | 9. K..... |
| 5. I..... V..... | 10. SH..... |





II
BOB

MA'MURIY HUQUQ



MA'MURIY HUQUQ TUSHUNCHASI



Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Savollarga javob bering.



1-vaziyat. Husnida haydovchilik guvohnomasini olish uchun imtihon topshirdi. Biroq haydovchilik ko'nikmalarini baholash imtihonidan o'ta olmadi. Uning fikricha, avtomashinani boshqarish imtihonini olgan nazoratchi mashinani boshqarish davomida ayrim noto'g'ri yo'riqnomalar bergan. Oqibatda imtihon natijasi salbiy bo'lgan.

Bunday vaziyatlarda qaysi davlat organiga murojaat etish lozim?


2-vaziyat. Ulug'bek shaxsiy avtomashinasini belgilanmagan joyda qoldirganligi uchun davlat yo'l harakati xavfsizligi xodimi tomonidan jarima belgilandi. Lekin Ulug'bekning fikricha, bu qaror noqonuniy. Chunki xodim jarimani tayinlashdan oldin o'zini tanishtirmagan va Ulug'bekning huquq va majburiyatlarini tushuntirib bermagan. Ulug'bek qarorni bekor qilishga harakat qilmoqchi.

Buning uchun qaysi sudga murojaat etish kerak? Tegishli jinoyat ishlari bo'yicha sudgami yoki ma'muriy sudgami? Nima uchun?



3-vaziyat. Umida farzandli bo'ldi. Onalik baxtidan u juda ham mamnun. Uning turmush o'rtog'i farzandiga tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma olish uchun tug'uruqxonaga murojaat qildi. Tug'uruqxona mutasaddilari bunday harakatlarni amalga oshirmasliklarini bildirdi.

Bu vaziyatda Umidaga huquqshunos rovida huquqiy maslahat bering.





Asosiy tushunchalar

Ma'muriy huquq – bu davlat boshqaruvi faoliyatida yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi hisoblanadi. Shu jumladan, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar ham ma'muriy huquq bilan tartibga solinadi.

! Ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarga misollar

Avtomashinani davlat ro'yxatidan o'tkazish

Ichki ishlar organlari hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar kelib chiqadi.

Tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish

Davlat xizmatlari markazlari hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar vujudga keladi.

Oliygozlarga kirish imtihonlarida qatnashish uchun ro'yxatdan o'tish

Bilim va malakalarni baholash agentligi hamda jismoniy shaxslar o'rtasida munosabatlar kelib chiqadi.

Shaxslarning davlat organlariga murojaat qilishi

Tegishli ma'muriy organ hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar kelib chiqadi.

Asosiy tushunchalar

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar – bu davlat organlari va fuqarolar yoki tashkilotlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar bo'lib, ular ma'muriy huquq normalari asosida tartibga solinadi.

Boshqacha qilib aytganda, bu davlat boshqaruviga oid qonun-qoidalarga asoslangan munosabatlar bo'lib, bir tomon davlat organlari (ma'muriy organ) bo'lgan holatda yuzaga keladi.

Ma'muriy huquqiy munosabatlar doirasida shaxslar O'zbekistondagi Ma'muriy sudlarga murojaat etishlari mumkin. Masalan, ro'yxatdan o'tkazishni rad etganlik yoki ijro organlarining qarorlari ustidan sudga murojaat qilishlari mumkin.

Ijodiy faoliyat

Siz ma'muriy sudda advokat sifatida ishtirok etyapsiz. Tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun mijozingizning ruxsatnomasi asossiz ravishda bekor qilingan. Siz u shaxsni sudga himoya qilishingiz kerak. Himoya nutqini tayyorlang va chiqish qiling.

Quyidagilarni hisobga olgan holda nutqingizni tuzing: holatning tasavvuriy bayoni, mijozning huquqlari, mas'ul xodim xatti-harakatlarining bahosi (qonuniy yoki noqonuniy), asoslangan huquq manbasining bayoni.

? Ma'muriy sud nima?

Ma'muriy sud – fuqarolar va yuridik shaxslarning davlat organlari, mansabdor shaxslarning noqonuniy qaror yoki harakatlariga nisbatan shikoyatlarini ko'rib chiqadigan sudlov organidir.






Xulosa qiling

Ma'muriy sudlarning asosiy vazifalari bilan tanishib chiqing. Ma'muriy sudlarning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha xulosa chiqaring. 2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sudlar tizimi joriy qilindi.

Quyidagilar ma'muriy sudlarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi ma'muriy nizolarni hal qilish; mansabdor shaxslarning noqonuniy qaror va harakatlarini bekor qilish; davlat hokimiyati bilan bog'liq ma'muriy-huquqiy nizolarni hal qilish.



Yodda tuting

Bugungi kunda o'quvchilar orasida ma'muriy huquqni tushunish borasida noto'g'ri qarash keng tarqalgan. Ya'ni "ma'muriy huquq" deganda, "ma'muriy javobgarlik"ni tushunadilar. Afsuski, bu noto'g'ri tushuncha!

"Ma'muriy huquq" va "ma'muriy javobgarlik" butunlay farqli tushunchalardir

Ma'muriy huquq

Ma'muriy huquqning aniq bitta manbasi mavjud emas. Bunga asosiy sabab ma'muriy huquqiy munosabatlar doirasining juda kengligidir.

Ma'muriy huquq litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-tomillari, davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq turli ma'muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi. Bunday davlat xizmatlarini ko'rsatish rad etilganda yuqori turuvchi organga yoki ma'muriy sudlarga murojaat qilish mumkin bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik

Ma'muriy javobgarlikning asosiy huquqiy manbasi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hisoblanadi.

Shaxs ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganda ma'muriy javobgarlik yuzaga keladi. Masalan, yo'l harakati qoidalariga rioya etmaslik ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bunday huquqbuzarlik jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ko'rib chiqiladi.




Hamkorlikda bajaramiz

Ma'muriy organ tushunchasiga berilgan ta'rifni o'qing. Kichik guruhlar tuzib, ma'muriy organlarga misol keltiring.

Ma'muriy organ – ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlardir.





Izlanishda davom eting

Quyidagi vaziyatlar “ma’muriy huquq” yoki “ma’muriy javobgarlik” tushunchalariga aloqadorligi bo’yicha qaror qabul qiling. Fikringizni asoslang.

No	Vaziyatlar	Ma’muriy huquq	Ma’muriy javobgarlik
1	Yo'lovchining transportda chiptasiz yurishi		
2	Avtomototransport vositalarini qayta jihozlash uchun ruxsatnoma olish		
3	Haqorat qilish, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish		
4	Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyati uchun litsenziya olish		
5	O'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish		
6	Tungi soat 23:00 dan 06:00 gacha fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzish		
7	Tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish		

DAVLAT XIZMATLARIDAN FOYDALANISH

Faollashtiruvchi savollar

Tasavvur qiling, siz quyidagi vaziyatlarga duch keldingiz. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan (<https://my.gov.uz>) foydalanib, vaziyatlar uchun eng maqbul huquqiy yechimlarni taklif eting.



1-vaziyat. Siz Xalqaro ingliz tili testi tizimi (IELTS) imtihonida eng yuqori natijani qo'lga kiritdingiz. Endi imtihon uchun amalga oshirilgan to'lovni qaytarib olmoqchisiz.

*Qanday qilib bu ishni uddalash mumkin?
Tushuntirib bering.*

2-vaziyat. Sizing ukangiz ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat olib boradi. Turli materiallar tayyorlab ularning sotuvini tashkil etadi. Lekin u biror-bir davlat ro'yxatidan o'tmagan.

Ukangiz o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmoqchi. Chunki bu borada soliqdan chegirmalar mavjud.

Qanday qilib, o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish mumkin. Tushuntirib bering.



3-vaziyat. Otangiz yaqin do'stidan "Tracker" rusumli mashinani ijaraga oldi. Otangiz mashinaning boshqaruvi uchun jismoniy shaxslarga beriladigan elektron ishonchnoma olish imkoniyati borligini bilib qoldi. *Shu kabi ishonchnomani rasmiylashtirishda otangizga yordam bering.*

4-vaziyat. Ukangiz chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy imtihonlarda ishtirok etmoqchi. Bu uchun ro'yxatdan o'tish majburiy ekan.

Ro'yxatdan o'tish ketma-ketligini tushuntirib bering.



Asosiy tushunchalar

Davlat xizmatlari – bu davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan rasmiy xizmatlar.

Bu xizmatlar odatda davlat organlari yoki maxsus markazlar orqali amalga oshiriladi. Ko'plab xizmatlarni hozir onlayn ham olish mumkin.

Har qanday vaqtda davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish qulay bo'lib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) 24/7 rejimida ish olib boradi.



Jismoniy va yuridik shaxslar foydalanishi mumkin bo'lgan davlat xizmatlarining turlari



Uy-joy kommunal xo'jaligi

Uy-joy kommunal xo'jaligi xizmatlariga ulanish, tariflar, balansni tekshirish



Ko'chmas mulk

Mulkni rasmiylashtirish va mulk huquqi, kadastr va qurilish



Transport

Sug'urta polisi, haydovchilik guvohnomalarini almashtirish



Ta'lim

Maktabgacha ta'lim, o'rta va oliy ta'lim, nostrifikatsiya



Axborot va aloqa

Axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va aloqa



Litsenziyalash

Litsenziya va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish



Sog'liqni saqlash

Tibbiyot, farmatsevtika va salomatlik



Ma'lumotnomalar

Har qanday hayotiy vaziyatlar uchun ma'lumotnomalar



Investitsiya va savdo

Ishlab chiqarish, savdo va iste'molchilar huquqi



Bojxona

Ruxsat beruvchi hujjatlar, bojxona to'lovlari



Adliya

Yuridik xizmatlar, notarial harakatlar



Ekologiya

Tabiatdan foydalanish, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi



Fuqarolik

Fuqarolarni ro'yxatga qo'yish, pasport xizmatlari



Tadbirkorlik

Tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazish




Davlat xizmatlaridan foydalanish yo'llari



10%

Internetda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining (YIDXP) veb-sayti hisoblangan my.gov.uz saytida mustaqil tarzda davlat xizmatlaridan foydalanish mumkin. Davlat xizmatlari onlayn ko'rsatilsa, pulli xizmatlar uchun chegirma beriladi.



Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan internet tarmog'ida my.gov.uz sayti orqali davlat xizmatlaridan foydalanish mumkin. Bunda jahon internet tarmog'idan foydalanish bo'yicha ko'nikma yetarlidir.



Davlat xizmatlari markazi davlat xizmatlarini oflayn shaklda ko'rsatadi. Qayerda doimiy ro'yxatda turishingizdan qat'i nazar, eng yaqin davlat xizmatlari markaziga borish orqali davlat xizmatlaridan foydalanishingiz mumkin.



Bundan tashqari, davlat xizmatlari markazlari tomonidan olis hududlarga maxsus transportlarda sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish ham yo'lga qo'yilgan.



Yodda tuting

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) 2013-yilda ishga tushirilgan.

Portalni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad shaxslarga davlat xizmatlaridan tez va qulay foydalanishlari uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Sayt uchun bu sohani tartibga soluvchi vazirlik mas'ul bo'lsa-da, xizmatlarni turli vazirliklar va tashkilotlar taqdim etadi. Ya'ni barcha davlat xizmatlari "yagona darcha" prinsipi asosida portal orqali taqdim etiladi.



Hamkorlikda bajaramiz

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan (my.gov.uz) foydalanish ko'nikmasini oshiramiz!

Dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda eng yaqin sinfdoshingiz bilan hamkorlikda quyidagi davlat xizmatlaridan foydalaning:

- ishga joylashish uchun kerakli hujjatlar to'plamini aniqlash;
- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami haqida ma'lumotnoma olish;
- o'zingiz uchun doimiy yashash joyi bo'yicha ma'lumotnoma olish;
- ota-onangizdan birida soliqdan qarzi mavjud emasligi haqida ma'lumotnoma olish;
- talaba qarindoshingizning oliy ta'lim muassasasida o'qiganlik haqida arxiv ma'lumotnoma olish;
- otangiz yoki onangizning mehnat daftarchasidan ko'chirma olish.



Izlanishda davom eting


BMT Elektron hukumat bilim bazasi (E-Government knowledge base)

Butun dunyo davlatlaridagi fuqarolarga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha eng muhim ma'lumotlar tizimidir.

Elektron hukumat bilim bazasiga tashrif buyuring.

Mamlakatimizning jahondagi o'rnini aniqlang.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali uchun (my.gov.uz) yana qanday elektron xizmatlar yaratish mumkinligi bo'yicha takliflar ishlab chiqing.



my.gov.uz



MA'MURIY-HUQUQIY NIZOLAR

Faollashtiruvchi savollar

Quyida tasvirlangan vaziyatlarga e'tibor bering. Aks ettirilgan ma'muriy-huquqiy nizolarga munosabat bildiring. Savollarga javob berishga harakat qiling.




1-vaziyat. Ichki ishlar xodimi sizdan shaxsni tasdiqlovchi hujjatingizni so'radi. Sizning yoningizda hech qanday hujjat mavjud emasligi bois, organ xodimi sizni yaqin oradagi ichki ishlar idorasiga borishingizni talab qildi.

Huquqni muhofaza qilish organlari qanday holatda shaxslarni majburan olib ketishi mumkin?

2-vaziyat. Yo'lni kengaytirish zarurati kelib chiqdi. Sizning yo'l bo'yidagi uyingizni ommaviy ehtiyojlardan kelib chiqib, buzish ishlari boshlandi. Biroq uy uchun kompensatsiya to'lovlari to'lab berilmasdan, yo'l quruvchilari uyingizni buzish ishlarini boshlab yuborishdi.

Bunday holatda mulkdor o'z huquqlarini qanday himoya qilishi mumkin?



3-vaziyat. Akobirjon 11-sinfni tugatgach, kichik shirinlik do'koni ochmoqchi bo'ldi. U yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish uchun davlat xizmatlari markaziga murojaat qildi. Ammo arizasi rad etildi, sababi esa aniq aytilmadi.

Akobirjon bu qarorga rozi emas. Endi u qanday yo'l tutishi mumkin?

4-vaziyat. Madina oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun imtihon topshirdi. U o'z hisobiga ko'ra 180 ball to'pladi, lekin rasmiy natijalarda 160 ball deb yozilgan edi. Madina bu holatdan norozi bo'lib, Bilim va malakani baholash agentligiga apellyatsiya arizasi ni yozdi. Arizasida u aniq test savollarini ko'rsatib, baholashda xato bo'lganini isbotlashga harakat qildi.

Bilim va malakani baholash agentligi Madinaning vajlarini asossiz deb hisoblab, rad etsa, u qanday yo'l tutishi mumkin?



5-vaziyat. Ismoil 11-sinfni tugatgach, Turkiyadagi oliygohga o'qishga kirish uchun xorijga chiqish pasportiga ariza berdi. Oradan 25 kun o'tdi, ammo u hali ham javob olmadi. U pasport beruvchi tashkilotga bordi, lekin "sabr qiling" degan javob oldi.

Ismoil bu holatda o'z huquqini qanday himoya qilishi mumkin?



Asosiy tushunchalar

Har bir shaxs davlat idoralari bilan har xil munosabatlarga kirishadi. Masalan, pasport olish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish yoki davlat mansabdor shaxslarining qarorlari, harakati yoki harakatsizligidan norozi bo'lish kabi holatlar davlat bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Agar shaxs davlat organining harakati, qarori yoki harakatsizligidan norozi bo'lsa va bu masala qonun doirasida hal qilinmasa, ma'muriy-huquqiy nizo yuzaga keladi.

Ma'muriy-huquqiy nizo – bu shaxslar bilan davlat organlari o'rtasida, davlat xizmatlari yoki ma'muriy choralar bo'yicha kelib chiqqan kelishmovchilikdir.

Ma'muriy-huquqiy nizoning ishtirokchilari

Davlat organi yoki mansabdor shaxslar



Jismoniy va yuridik shaxslar



Xulosa qiling

Fuqarolar davlat organlarining qarori, harakati yoki harakatsizligidan norozi bo'lsa, quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

avval murojaat qilgan tashkilotning o'ziga shikoyat qilish;

so'ng, yuqori turuvchi tashkilotga shikoyat qilish;

oxirgi chora – ma'muriy sudga shikoyat qilish.

O'zbekiston qonunchiligida bunday nizolarni hal qilish uchun alohida tartiblar va sud tizimi mavjud.



Yodda tuting

Jismoniy va yuridik shaxslar davlat organlarining noqonuniy qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) bo'yicha yuqori turuvchi organlarga murojaat qilishi mumkin. Masalan, tuman ichki ishlar organi rahbari ustidan viloyat ichki ishlar organiga murojaat qilish mumkin. Qonunchilikda murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari qat'iy belgilangan.

Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga, tashkilotiga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlari yuritish to'g'risidagi kodeksi ma'muriy huquqiy nizolarni sud tartibida hal etishni tartibga soluvchi asosiy huquq manbasi hisoblanadi.





Fikrimizni tasdiqlaymiz

Ma'muriy sudlar tomonidan hal etiladigan ishlar:

davlat boshqaruvi organlarining jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakat yoki harakatsizligi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar;

notarial harakatni amalga oshirish yoki boshqacha shakldagi davlat ro'yxatiga olishni rad etilganlikka oid nizolar;

saylov komissiyalarining xatti-harakatlari yuzasidan kelib chiqadigan nizolar.



Hamkorlikda bajaramiz

2023-yil 1-yanvardan boshlab ichki ishlar organlari faoliyatiga bosqichma-bosqich "E-patrul" tizimi joriy etilib, fuqaroning shaxsini aniqlash uchun ichki ishlar bo'limiga olib borish amaliyotidan voz kechildi. Barcha ma'lumotlar joyida planshet orqali tekshirilib, ichki ishlar organlari patrul-post xizmati xodimlarining faoliyati "bodikamera"dan foydalangan holda amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

Patrul-post xizmati saf bo'linmalari xodimlari shaxsni sodir etilgan jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik haqida ma'lumotga ega deb hisoblash mumkin bo'lgan hollarda fuqarolarni to'xtatishi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar yoki "E-patrul" tizimi orqali ularning shaxsini aniqlashi mumkin.

Huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etilishida umuman aloqador bo'lmagan fuqaroni patrul-post xizmati xodimi ichki ishlar idorasiga majburan olib ketishi mumkinmi? Partadoshingiz bilan muhokama qiling.



Izlanishda davom eting

"Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rnini qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi".

Yuqoridagi huquq normasi qaysi hujjatda keltirilgan, deb o'ylaysiz?

Mulk huquqini himoya qilish uchun mulkdorlar qaysi organlarga murojaat etishlari mumkin?



MA'MURIY HUQUQBUZARLIK VA MA'MURIY JAVOBGARLIK



Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi rasmlarga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

1. Mazkur rasmlarda qanday huquqbuzarlik turlari aks ettirilgan? Ularni jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik ekanligini aniqlang.
2. Nima uchun huquqbuzarlarni jazolash lozim deb o'ylaysiz?
3. Huquqbuzarlarni jazolashdan qanday maqsad ko'zlanishi mumkin?
4. Shaxs faqat jazodan qo'rqishi tufayli huquqbuzarlik sodir etmasligi mumkinmi? Yoki oiladagi tarbiya, maktabdagi ta'lim ham muhim deb hisoblaysizmi? Nima uchun?




Asosiy tushunchalar

Jamiyatning barcha a'zolari har doim ham munosib huquqiy xulq-atvorda bo'lavermaydi. Ayrim shaxslar huquqqa zid xatti-harakatlar ham sodir etib turadi. Shu sababli, huquqshunoslik fanida huquqbuzarlik tushunchasi va uning xususiyatlari alohida o'rganiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik – ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy, aybli harakat yoki harakatsizlikdir.

Mamlakatimizda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks amalda bo'lib, mazkur kodeks bilan taqiqlangan qilmishni sodir etish ma'muriy huquqbuzarlik sifatida baholanadi va javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Ma'muriy huquqbuzarlikka misol sifatida mayda bezorilik, yo'l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish, pasport tizimi va turar-joyini qayd etish qoidalarini buzish, elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzish, atrof-muhit, tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklarni keltirib o'tish mumkin.





Asosiy tushunchalar

Agar biror shaxs ma'muriy huquqbuzarlik sodir etsa, ma'muriy javobgarlik yuzaga keladi. Albatta, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan aqli raso shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy javobgarlik – shaxslarning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishga qaratilgan qilmishi uchun huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan huquqiy oqibatdir. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun jazo tegishli sudlar va boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan belgilanadi.

Ma'muriy jazoning maqsadi jazolash emas!



Xulosa qiling

Demak, ma'muriy jazo ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarni hurmat qilish va ularga rioya etish ruhida tarbiyalash, yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.



Ma'muriy jazo turlari

Jarima

Ma'muriy qamoqqa olish

Maxsus huquqdan mahrum etish

Haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish qurolini musodara qilish

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish qurolini haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish



Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi uchun javobgarlikning o'ziga xosligi

Voyaga yetmaganlarga ma'muriy qamoqqa olish jazosi qo'llanilmaydi.

Voyaga yetmaganlarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarga darhol xabar beriladi.

Voyaga yetmaganlarning qonuniy vakillari (masalan, ota-onalari) ularning qonuniy manfaatlarini ifodalashga haqli.

Voyaga yetmaganlar o'zini himoya qilish huquqiga ega.

Shuningdek, advokat yoki qonuniy vakili ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishi mumkin.

Agar huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan voyaga yetmagan boladan biror masalada izoh so'ralayotgan bo'lsa, u o'z fikrini erkin aytishi mumkin. Shuningdek, javob bermaslik huquqidan foydalanishi ham mumkin.

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mustaqil ish haqi bo'lmagan taqdirda, jarima ularning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi.



Hamkorlikda bajaramiz

Quyidagi vaziyat bilan tanishib chiqing. Bunday vaziyatda qanday javobgarlik kelib chiqishini kichik guruhlarda tahlil qiling.

Mahalla ichidagi ko'chalardan birida ikki nafar o'smir bola ko'chada o'ynab yurgan itga duch kelishdi. Boshida ular itni chaqirib, go'yoki u bilan o'ynagandek bo'lishdi. Biroq keyinroq ulardan biri itga tosh ota boshladi. Ikkinchisi esa telefonini olib, bu holatni kulib videoga oldi.

It qo'rqib, qochmoqchi bo'ldi, lekin bolalar uni yana quvib, tosh otishda davom etishdi. Shu vaqtda yon-atrofdagi yashovchi Kamronbek bu holatni ko'rib, itni himoya qilishga harakat qildi. Bolalar qochib ketishdi.

Kamronbek itni veterinarga olib borib, birinchi yordam ko'rsatdi. Shundan so'ng mahalla faollariga xabar berdi. Bolalarning shaxsi aniqlanib, ularning ota-onalari chaqirtirildi.

Ularga bolalarning harakati hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lish ekanligi tushuntirildi.

Bu kabi harakatlar jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka olib kelishi mumkinligi haqida tushuntirish ishlari olib borildi. It esa mahalladagi hayvonlarni asrash bilan shug'ullanuvchi ko'ngilli fuqaroga topshirildi.



Izlanishda davom eting

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasidan (lex.uz) Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslardagi bir xil huquqbuzarlik va jinoyat turlarini aniqlang. Ularning o'zaro qanday farqlari mavjud ekanligini tahlil eting.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks

Jinoyat kodeksi

40-modda. Tuhmat

139-modda. Tuhmat

41-modda. Haqorat qilish

140-modda. Haqorat qilish

LexUZ
on-line



HUQUQBUZARLIKNING OLDINI OLISH

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi rasmlarga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

1. Huquqbuzarlikning oldini olishda qanday davlat tashkilotlari faoliyat olib boradi?
2. Keltirilgan ramzlar qaysi davlat organlariga taalluqli, deb o'ylaysiz?
3. Mazkur davlat organlari qanday huquqbuzarliklarning oldini olish bilan shug'ullanadi? Nima uchun?
4. Bu davlat organlarini umumiy ma'noda qanday nomlash mumkin?
5. Siz kelajakda qaysi huquqni muhofaza qiluvchi organda ishlashni xohlaysiz? Nima uchun bunday qarorga keldingiz?
6. Siz qaysi davlat organi xodimlari bilan huquqbuzarlikning oldini olish yoki aniqlash borasida duch kelgansiz?



Yodda tuting

Hayotimiz osuda, fayz-barakali bo'lishi, vatandoshlarimizning ertangi kunga ishonchi, hayotga muhabbati yuksalishi uchun huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlarini samarali olib borish talab etiladi. Shunda yurtimizda tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik hukm suradi. Huquqbuzarlikning oldini olish faqat davlat, xususan ichki ishlar organlari emas, balki har bir O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchidir. Huquqbuzarlikning oldini olishdagi eng muhim chora-tadbirlar tizimi huquqbuzarliklar profilaktikasi.



Asosiy tushunchalar

Huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq-tartibotni saqlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini o'rganishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

Profilaktika so'zi yunonchadan kelib chiqqan bo'lib, "oldini olish" ma'nosini bildiradi. Huquqshunoslik fanida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaraladi.



! Yoshlar huquqbuzarligining oldini olish bo'yicha milliy qonun hujjatlari

“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun

“Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi Qonun

“Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun

✓ Asosiy tushunchalar

“**Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni**” – har haftaning payshanba kuni etib belgilangan. Bu kunda huquqbuzarlikning oldini olish ishlari sarhisob qilinadi. Aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib boriladi.

⚖ Qonun belgilaydi

Mamlakatimizda 2014-yilda “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonun kuchga kirdi. Mazkur qonunning qabul qilinishi tufayli, yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari tizimlashtirildi. Bu borada vakolatli davlat organlari belgilandi.

📝 Xulosa qiling

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarining asosiy vazifasi – shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish ham bu boradagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Bu kabi organ va muassasalar jazolovchi emas.

Aksincha sizning huquq va erkinliklaringizning himoyachilardir.





! Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar

Prokuratura organlari

Davlat xavfsizlik xizmati organlari

Ichki ishlar organlari

Milliy gvardiya organlari

adliya organlari

davlat bojxona xizmati organlari

davlat soliq xizmati organlari

mehnat organlari

ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari

sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari va boshqalar



Yodda tuting

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari cheklanishiga, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo'lishga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, shaxsiy hayot, yozishmalar, telefonda so'zlashuvlar, pochta, telegraf xabarlari va boshqa xabarlar sir saqlanishi, bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chish va yashash joyini tanlash, shuningdek shaxsiy daxlsizlik, uy-joy daxlsizligi buzilishi tegishli javobgarlikni keltirib chiqaradi.





Qonun belgilaydi

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 29-modda

Tarixga nazar

Huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha Temuriylar davlati va joriy milliy qonunchiligimizni qiyosiy tahlil qiling. Fikringizni asoslab bering.



“Hukm qildimki, bir kishini arzbegi qilib tayinlasinlar. U sipoh, raiyat va arz-dod qilib keluvchilarning ahvolini, mamlakatning obod yoki xarobligini, muhim ishlardan qaysi biri bitgan-bitmaganligini mening arzimga yetkazib tursin. Har bir shahar va qishloqqa qutvol tayinlasinlarki, sipoh-u raiyatga soqchilik qilsin, kimning biron narsasi o'g'irlansa, buning mas'uliyati uning zimmasida bo'lsin.

Va yana buyurdimki, yo'l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo'llarni qo'riqlab, yo'lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan manzilga yetkazib qo'ysinlar. Yo'l ustida birortasining narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo'lsin”.

“Temur tuzuklari”dan


Izlanishda davom eting

Quyidagi huquqbuzarlikning oldini olish choralaridan qay biri samaraliroq? Ularni tegishli tartibda joylashtiring va o'z fikringizni asoslab bering. Huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha siz yangi chora taklif eta olasizmi? Taklifingizni asoslab bering.

Profilaktik suhbat – shaxsni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirish, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirish.

Rasmiy ogohlantirish – shaxsga uning g'ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risida yozma ravishda tushuntirish.

Profilaktik hisobga olish – huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ularning tuzalishi va takroran huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari tomonidan ro'yxatga olish.





IJODIY FAOLIYAT

1-topshiriq.

Quyidagi jadvalda keltirilgan holatlar ma'muriy huquqiy munosabat yoki ma'muriy huquqbuzarlikka oid ekanligini tahlil eting.


№	Vaziyatlar	Ma'muriy huquqiy munosabat	Ma'muriy huquqbuzarlik
1	Jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik		
2	Jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish		
3	Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ariza qoldirish		
4	Pirotexnika buyumlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish		
5	Haydovchilik guvohnomasini olish uchun bo'lib o'tgan imtihondagi muvaffaqiyatsizlik tufayli apellatsiya berish		





2-topshiriq.

Quyidagi rasmlarda tasvirlangan holatlardan qaysilari ma'muriy huquqiy munosabatlarga taalluqli emas. Fikringizni asoslab bering.



3-topshiriq.

Shakllarda berilgan so'zlarni umumlashtiruvchi yuridik terminni toping.

1	Ma'muriy boshqaruv vakolati	+	Davlat organi	=	?
2	Jismoniy va yuridik shaxslar	+	Davlat organlarining xizmati	=	?
3	Fuqarolar va davlat organlari	+	Nizolar	=	?
4	Huquq-tartibotni saqlash	+	Chora-tadbirlar tizimi	=	?



4-topshiriq.

Quyidagi vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Ularga huquqiy yechim bering. Fikrlaringizni asoslab bering.

1-vaziyat. Kamronbek "Tracker" rusumli mashinasini boshqarib ketayotganida yo'l patrul xizmati xodimi tomonidan to'xtatildi. Xodim o'zini tanishtirgach, Kamronbek transport vositasini boshqarish vaqtida telefonda foydalanganligini bildirib, ma'muriy huquqbuzarlik bayonnomasini tuza boshladi.

Kamronbek telefonda gaplashib kelayotganligini tan oldi. Biroq u O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini yaxshi bilishini aytib, mashinani boshqarayotganda quloqchinlar orqali va qo'llarni ishlatmasdan turib foydalanish mumkin ekanligini bildirdi.

Vaziyatga huquqiy yechim bering.



2-vaziyat. Maktabda Alisher o'zidan kichik yoshli Akobirjonga qasddan yengil tan jarohati yetkazdi. Akobirjonning onasi Alisherning ota-onasini chaqirib, ularning farzandlari ishtirokida profilaktik suhbat o'tkazish bo'yicha mahalla noziriga ariza bilan murojaat qildi. Shuningdek, ularga ma'muriy jarima qo'llash kerakligini bildirdi.

Lekin mahalla noziri Alisher o'n olti yoshga kirmaganligini aytib, jarima yoki boshqa ma'muriy jazolarni qo'llab bo'lmasligini bildirdi.

Vaziyatga huquqiy yechim bering.

5-topshiriq.


"Berlin Rent Control Case" – Ijara narxlarini cheklash ishi

Berlin shahri uzoq vaqtlar davomida ijaraga olingan uylar bilan bog'liq muammolarga duch kelgan. Shaharga yangi odamlar kelishi va talabning oshishi natijasida ijara narxlari tez ko'tarilib ketar edi. Shu sababli Berlin Xalq vakillari palatasi "Mietendeckel" nomli qonunni qabul qildi. Bu bilan shahardagi ijara haqining chegarasi belgilandi. Mulkdorlarga ijara haqini oshirish taqiqlandi.

Ko'plab uy egalari bu qonundan norozi bo'lib, ma'muriy sudlarga murojaat etishdi. Hat-toki, bu masala Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudida ham ko'rib chiqildi.

Federal Konstitutsiyaviy sud 2021-yilda mazkur qonunni konstitutsiyaga zid va haqiqiy emas deb topdi. Uy egalari uchun bu qaror ijobiy bo'ldi, chunki ular bozordagi erkin narx belgilash huquqini qaytarib oldi.

Tasavvur qiling, siz uy ijarasi bilan shug'ullanasiz. Siz faoliyat olib boradigan shaharda ijara haqi hokimiyat organlarining qarori bilan cheklab qo'yildi. Siz qaysi organga murojaat qilasiz?



III
BOB

JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA


JINOYAT HUQUQI

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi rasmlarga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

1. Jinoyat deganda nimani tushunasiz? Jinoyatga qanday misollar keltira olasiz?
2. Quyidagi rasmlarda nimalar tasvirlangan?
3. Rasmlarning qay birida jinoyat huquqining asosiy manbasi keltirilgan?
4. Jinoyat sodir etgan shaxslarni tergov qilish bilan shug'ullanuvchi qanday davlat idoralari bilasiz?
5. 3-rasmda qaysi huquqni muhofaza qiluvchi organning rasmiy ramzi keltirilgan?

1



2



3



Asosiy tushunchalar

Jinoyat huquqi – davlat tomonidan belgilangan huquqiy normalar tizimi bo'lib, u jinoyat deb hisoblanadigan harakatlarni, ularga nisbatan qo'llaniladigan jazolarni va jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarligini tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahtidi bilan jinoyat deb topiladi.

Yodda tuting

Har qanday huquq sohasi o'z vazifalariga ega bo'ladi. Jinoyat huquqi ham bundan mustasno emas.

Jinoyat huquqining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoyiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.



Asosiy tushunchalar

Jinoyat huquqining prinsiplari – bu ushbu huquq sohasining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi muhim tushunchalardir.

Jinoyat huquqining asosiy prinsiplari o'zaro teng qimmatlidir. Ularning har biri mustaqil mohiyatga ega bo'lib, davlatning jinoyat huquqiga oid siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bir qator vazifalarni bajaradi.

! Jinoyat huquqining asosiy prinsiplari

Qonuniylik

Sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi.

Fuqarolarning qonun oldida tengligi

Jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, qonun oldida tengdirlar.

Demokratizm

Jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishlari mumkin.

Insonparvarlik

Jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi.

Odillik

Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak.

Ayb uchun javobgarlik

Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi.

Javobgarlikning muqarrarligi

Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart.



Tarixga nazar

“Temur tuzuklari”dan keltirilgan quyidagi parchani o‘qing. Jinoyat huquqining qaysi prinsipi haqida so‘z yuritilayotganligini aniqlang.

“Qishloq oqsoqoli va shahar ulug‘lari kichikroq darajadagi odamga zulm qilsalar, o‘sha zulmga yarasha, har kimning ko‘tarishicha jarima solsinar. Agar darug‘alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm etib, ularni xarob qilgan bo‘lsalar, ishlariga loyiq jazo berilsin. Biror kimsaning guno-hi isbotlangandan keyin undan jarima olsalar, so‘ng yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar”.

“Temur tuzuklari”dan



Yodda tuting

Jinoyat

Jinoyat – bu jamiyat uchun xavfli qilmish hisoblanadi. Masalan, o‘g‘rilik, pora olish, odam o‘ldirish kabi jinoyatlar fuqarolarning xavfsizligiga bevosita zarar yetkazadi.

Jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bunda jazolar nisbatan o‘g‘ir shaklda bo‘ladi. Masalan, sud tomonidan shaxsga ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo‘llash.

Jinoyat ishlarini sud ko‘rib chiqadi. Jinoyat uchun jazo faqat sud tomonidan belgilanadi.

Jinoyat uchun jazo O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi.


Ma‘muriy huquqbuzarlik

Ma‘muriy huquqbuzarlik – bu yengilroq shakldagi qilmish bo‘lib, uning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo‘lmaydi. Masalan, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilmaslik.

Ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ma‘muriy javobgarlikka tortiladi. Bu holatda jarima yoki ma‘muriy qamoq kabi yengilroq jazolar tayinlanadi.

Ma‘muriy huquqbuzarliklar uchun jazo nafaqat jinoyat ishlari bo‘yicha sud balki ichki ishlar organlari yoki boshqa ma‘muriy organlar tomonidan beriladi.

Ma‘muriy huquqbuzarlik uchun jazo Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks asosida tayinlanadi.





Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlarga bo'ling. Quyidagi vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Ularning qay biri jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik ekanligini aniqlang.


1. Mehrnoza bozordagi sotuvchiga baqirib, do'kon buyumlarini otib yubordi. Atrofdagilar bu holatdan norozi bo'lib, ichki ishlar bo'limiga murojaat qilishdi.
2. O'n olti yoshli Botirshoh besh-olti yoshdagi bog'cha tarbiyalanuvchilarini aldab, qo'shnilarning velosipedlarini o'g'irlab kelishni tashkil etdi.
3. Sanjar shoshilinch ish bilan svetoфорning qizil chirog'iga qaramay, harakatlanib ketdi. Videoqayd qurilmasi bu holatni yozib oldi va unga jarima belgilandi.
4. Shohrud o'z uyida katta miqdordagi giyohvandlik moddalarini tijorat maqsadida saqlab kelayotgan edi.
5. Ikki o'quvchi sinf xonasida o'zaro janjallashib qoldi. Biri boshqasining yuziga musht tushirdi. Maktab hamshirasi bu yengil tan jarohati ekanligini aytdi.
6. Elshod kechasi parkda yolg'iz ketayotgan yigitni to'xtatib, sovuq qurol bilan qo'rqitdi. U yigitning telefonini va pulini olib qochdi.
7. Sotuvchi voyaga yetmagan shaxslarga tamaki mahsulotlarini sotdi.
8. Nurshod kechasi ko'chada qarovsiz qolgan avtomashinaning eshigini buzib ochdi. Mashinadan telefon va pullarni olib, qochib ketdi.



Qonun belgilaydi

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 28-modda



JINOIY JAVOBGARLIK VA JAZO TIZIMI

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi huquq normalaridan keltirilgan parchalarga e'tibor bering. Ularni qonunchilikda belgilashdan ko'zlangan maqsadni aniqlang.

1-vaziyat. Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan shaxslarga, o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.



2-vaziyat. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jazo tayinlanmaydi, bundan odam o'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan hollar mustasno.

3-vaziyat. Mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi. Tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.



Asosiy tushunchalar



Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

Jazo – bu jinoyat sodir etgan shaxsga sud tomonidan tayinlanadigan huquqiy ta'sir chorasidir. Uning asosiy maqsadi jinoyatchini jazolash emas.

Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Jazoning turi, miqdori va muddati jinoyatning og'irligi, shaxsning aybi, jinoyat sodir etilgan sharoitlar va yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlarga qarab belgilanadi.



Xulosa qiling

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburiy choradir. Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Asosiy tushunchalar

Jinoiy jazo turlari



Yodda tuting



Jarima – aybdordan davlat daromadiga Jinoyat kodeksida belgilangan miqdorda pul undirishdir.



Muayyan huquqdan mahrum qilish – sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egalashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini taqiqlashdan iboratdir. Ana shunday mansab yoki faoliyat turi sud tomonidan ayblovdan hukmda ko'rsatiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorning mansabi yoki ish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jinoyatni sodir etganligi uchun asosiy jazo tariqasida tayinlanganda – bir yildan besh yilgacha muddatga, qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda – bir yildan uch yilgacha muddatga belgilanadi.



Majburiy jamoat ishlari – mahkumni haq to'lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilishdan iboratdir. Mahkum ishlayotgan yoki o'qiyotgan bo'lsa, majburiy jamoat ishlari ishdan yoki o'qishdan bo'sh vaqtda o'taladi.

Mahkumlar majburiy jamoat ishlarini o'tashi mumkin bo'lgan joylar va majburiy jamoat ishlarining turi mazkur jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilanadi.



Axloq tuzatish ishlari – shaxs ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo'lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi.



Xizmat bo'yicha cheklash – harbiy xizmatni shartnoma bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta'minotining o'n foizidan o'ttiz foizigacha bo'lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iboratdir.



Ozodlikni cheklash – sud tomonidan mahkumga nisbatan uy-joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoxud ishlash yoki o'qish vaqtidan, shuningdek ish yoki o'qish joyigacha borishi va uy-joyiga qaytib kelishi uchun zarur bo'lgan vaqtdan tashqari qolgan vaqtda uy-joyidan chiqishni cheklashdan iborat.



Intizomiy qismga jo'natish – muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisini sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali, muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdir.



Ozodlikdan mahrum qilish – mahkumni jamiyatdan ajratib, jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir.

Ozodlikdan mahrum qilish bir oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi.



Umrbod ozodlikdan mahrum qilish – favqulodda jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun belgilanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayollarga, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanishi mumkin emas.



Yodda tuting

Harbiy yoki maxsus unvonga ega bo'lgan shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat uchun hukm qilinganida sud hukmi bilan mazkur unvondan mahrum qilinishi mumkin.

Oliy harbiy yoki maxsus unvonga yoxud O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotiga ega bo'lgan shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganida sudning hukmi asosidagi taqdimnomaga binoan mazkur unvon yoki mukofotdan mahrum qilinishi mumkin.



Tarixga nazar

“Hammurapi qonunlari”ga e'tibor qarating. O'zbekiston Jinoyat kodeksining 257–258-moddalari va quyidagi tarixiy manbadan keltirilgan parchani qiyosiy-huquqiy tahlil qiling.

“Hammurapi qonunlari” – miloddan avvalgi XVIII asrda Bobil shohi Hammurapi tomonidan tuzilgan yozma qonunlar to'plamidir. Bu qonunlar tosh ustiga mixxat yozuvida yozilgan va jamiyatda tartib, adolat hamda javobgarlikni ta'minlashga qaratilgan.

Qonunlar “ko'zga ko'z, tishga tish” prinsipiga asoslangan bo'lib, jinoyat qilgan shaxs aynan qilgan ishi miqdorida jazoga tortilgan. Misol uchun, agar bir kishi boshqasining qo'lini sindirsa – uning ham qo'li sindirilgan.

“Hammurapi qonunlari”ning 229-bandiga ko'ra, agar quruvchi bir kishiga uy qurib bersa, lekin u mustahkam bo'lmasa va qulab tushib, uy egasini o'ldirsa – quruvchiga o'lim jazosi berilgan.



Hamkorlikda bajaramiz

Quyidagi detektiv jumboq bilan tanishib chiqing. Kichik guruhlariga bo'lingan holda jumboqning yechimini aniqlang.

Yakshanba kuni tongda ichki ishlar bo'limiga qotillik bo'yicha xabar kelib tushdi.


Xolmurod uyidagi shaxsiy xonasida o'lik holda topilgan edi.

Janob Sinchkov va ichki ishlar xodimlari darhol voqea joyiga yetib borishdi.

Janob Sinchkov qotillik yuz bergan vaqtda uyda bo'lgan barcha shaxslarni so'roq qildi. Xolmurodning turmush o'rtog'i Mohigul mahzun holda quyidagi fikrlarni bildirdi: – “U erta sahar turib, har doimgidek, o'zining xonasiga kirib ketgandi. Keyin xonasiga kirsam, u qonga belangan holda yotgan ekan”, – deb yig'lab yubordi.

Janob Sinchkov uydagi xodimlarni ham birma-bir so'roq qildi. Uy bekasi erta tongdan birinchi qavatda tozalash ishlari bilan band bo'lganini ta'kidladi. Bog'bon esa daraxt va ko'chatlarni sug'organligini, xizmatkor pochta bo'limiga xatlarni tashlash uchun chiqib ketganligini, oshpaz esa nonushta tayyorlash ishlari bilan shug'ullanganligini aytdi.

Savol. Sizningcha, jinoyatni kim sodir etgan?







SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR



Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi rasmlarga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

1. Shaxsga qarshi jinoyatlar deganda nimani tushunasiz? Bunday jinoyatlarga qanday misollar keltira olasiz?
2. Shaxsga qarshi jinoyatlarni boshqa jinoyatlardan qanday farqlash mumkin? Fikringizni asoslab bering.
3. Quyidagi rasmlarda qanday jinoyatlar tasvirlangan?
4. 1-rasmda qanday harakatlar amalga oshirilmoqda? Fikringizni asoslab bering.
5. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish qanday javobgarlikni keltirib chiqaradi?



Asosiy tushunchalar

Shaxsga qarshi jinoyatlar – bu insonning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va jinsiy daxlsizligiga qarshi sodir etiladigan jinoyatlardir. Bunday jinoyatlar odamning eng muhim, konstitutsiyaviy huquqlarini buzadi. Har bir inson tug'ilganidan boshlab yashash va daxlsizlik huquqiga ega. Davlat bu huquqlarni himoya qilish majburiyatini oladi. Shuning uchun ham shaxsga qarshi jinoyatlar eng og'ir jinoyatlar sirasiga kiradi.

Masalan, odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish, qiy-nash, odam og'irlash, nomusga tegish kabi harakatlar shaxsga qarshi jinoyatlar hisoblanadi.

Ularning barchasi odamga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazadi. Bu jinoyatlar sodir etilganda nafaqat jabrlanuvchi, balki jamiyat ham zarar ko'radi. Chunki bunday harakatlar jamiyatda qo'rquv, befarqlik va adolatsizlik hissini uyg'otadi.

Internet jahon tarmog'ida boshqa kishining ruxsatisiz uning suratini ulashish shaxsga qarshi jinoyat tarkibiga kiradigan harakatni sodir etish hisoblanadi. Bunda shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.



Yodda tuting

Shaxsga qarshi jinoyatlar

Hayotga qarshi jinoyatlar

Masalan, qasddan odam o'ldirish, o'zini o'zi o'ldirishga undash

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar

Masalan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, tanosil yoki OIV kasalligi/ OITSni tarqatish

Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar

Masalan, nomusga tegish

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

Masalan, fuqarolarning teng huquqliligini buzish, fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar

Masalan, qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish

Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar

Masalan, pornografik mahsulotni tayyorlash va tarqatish, oilaviy zo'ravonlik, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish

Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar

Masalan, haqorat qilish, tuhmat, odam o'g'irlash, odam savdosi






Xulosa qiling

Afsuski, haqorat qilish shaxsga qarshi jinoyatlar ichida keng tarqalib bormoqda. Haqorat qilish – bu boshqa shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini ataylab, omma oldida yoki u bilan to’g’ridan to’g’ri haqoratli so’zlar, ifodalar yoki kinoyalar bilan tahqirlashdir. Bu harakat insonning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Haqorat aniq shaxsga yo’naltirilgan bo’lishi lozim.

Haqorat qilish, avval ma’muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Qayta sodir etilsa, so’ngra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Internet jahon axborot tarmog’i yoki turli ommaviy axborot vositalari orqali haqorat qilish bevosita jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.



Qonun belgilaydi

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko’ra yo’l qo’yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushlab chog’ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 27-modda



Fikrimizni tasdiqlaymiz

Shaxsga qarshi jinoyatlarning oldini olish uchun jamiyatda bir qator muhim choralar ko’rilishi kerak. Eng avvalo, har bir shaxs o’z huquqlarini va majburiyatlarini bilishi lozim. Bu esa huquqiy tarbiya orqali amalga oshadi. Ayniqsa, maktab o’quvchilari jinoyat tushunchasi, jinoyat sodir etish oqibatlari va qonuniy javobgarlik haqida aniq tushunchaga ega bo’lishlari zarur.

Oilada sog’lom muhit bo’lishi ham jinoyatlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Ota-onalar farzandlariga mehr bilan munosabatda bo’lishi, muammolarni urish yoki bosim bilan emas, balki muloqot orqali hal qilishni o’rgatishi kerak. Maktab, mahalla va jamoalarda ham nazorat kuchaytirilishi, zo’ravonlik holatlari erta aniqlanib, tegishli choralar ko’rilishi zarur.




Tarixga nazar

1. Mazkur she'riy parcha qanday ma'no anglatishini tahlil qiling.
2. Shaxsga qarshi jinoyatlarning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak, deb o'ylaysiz?

Koni-yu hayvoni, agar xud nabot,
Har biri bir gavhari oliy sifat.
Borchasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni sharif aylading.

Alisher Navoiy, "Hayrat ul-abror" dostoni



Izlanishda davom eting

Quyidagi savollarga javob bering. Fikringizni asoslab bering.

1. Ommaviy axborot vositalari orqali boshqa shaxsni haqorat qilish qanday javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin?
2. Boshqa shaxslarning suratlarini ruxsatsiz e'lon qilish yoki ularga ishlov berish qanday javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin?
3. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tuhmat qilib, keyin shaxsiy profilni o'chirib yuborish javobgarlikdan ozod qilishi mumkinmi? Nima uchun?




Ijodiy faoliyat

Quyidagi xorij tajribasi bilan tanishib chiqing.

Shaxsiy suratlarni noqonuniy tarzda e'lon qilish qanday turdagi jinoyat ekanligini asoslab bering.

Ayrim davlatlarda shaxsiy daxlsizlik jinoyat qonunchiligi bilan qat'iy qo'riqlanadi. Hattoki, shaxslarni ruxsatsiz suratga olish jinoyiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Turkiyada, agar shaxsni ruxsatsiz suratga olish shaxsiy hayot daxlsizligini buzsa, bu jinoyiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Turkiya Jinoyat kodeksiga ko'ra, boshqalarning shaxsiy hayoti bilan bog'liq rasmlarini ruxsatsiz oshkor qilgan shaxsga nisbatan turli jazolar, hattoki ozodlikdan mahrum etish jazosi ham qo'llanilishi mumkin.



ZO'RAVONLIK VA UNING OLDINI OLISH

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi ma'lumot bilan tanishib chiqing. Savollarga javob bering.

"Bulling" – bu bir kishining boshqa kishini doimiy ravishda tahqirlashi, qo'rqitishi yoki kamsitishidir. U og'zaki, jismoniy yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bulling maktabda, ko'chada yoki ijtimoiy tarmoqlarda uchraydi. Bu holat bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi, ularni yolg'iz, qo'rqqoq yoki tajovuzkor qilib qo'yadi.

1. "Bulling" tushunchasini ona tilingizga qanday tarjima qilgan bo'lar edingiz?
2. Quyidagi rasmlarda qanday holatlar aks ettirilgan?



Asosiy tushunchalar

Zo'ravonlik bu – insonning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati, erkinligi yoki daxlsizligiga qarshi qasddan qaratilgan har qanday jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy yoki boshqa ko'rinishdagi zarar yetkazuvchi harakat yoki harakatsizlikdir.

Bunday harakatlar shaxsga og'riq yetkazadi, uni qo'rqitadi, jamiyatdan ajratadi yoki ixtiyoriga zid ravishda majburiy o'zi xohlamagan holatga soladi. Zo'ravonlik nafaqat harakat (masalan, urish, haqorat qilish, zo'rlash), balki harakatsizlik (masalan, yordam ko'rsatmaslik, g'amxo'rlikdan mahrum qilish) orqali ham sodir etilishi mumkin.

Zo'ravonlik turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jismoniy zo'ravonlik bu – odamga tan jarohati yetkazish, uni urish yoki tanasiga boshqa yo'llar bilan og'riq berish orqali ro'y beradi. Bu holatda jabrlanuvchining sog'lig'i xavf ostida qoladi.

Ruhiy zo'ravonlikka doimiy haqorat qilish, kamsitish, tahdid qilish, qo'rqitish, yolg'on ma'lumotlar tarqatish yoki atrofida gilardan ajratib qo'yish kabi holatlar kiradi. Ruhiiy zo'ravonlik ayniqsa yaqin munosabatlarda masalan, oila, do'stlik yoki ish muhitida tez-tez uchraydi.


Bunday zo'ravonlik muntazam ravishda davom etsa, insonning ruhiy holatini izdan chiqaradi, uning normal yashashiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ruhiy zo'ravonlikni aniqlash, unga qarshi kurashish va jabrlanuvchini qo'llab-quvvatlash juda muhim hisoblanadi.



! Inson qadrini ulug'lash taraqqiyotga yetaklaydi



“Oila – mehr-muhabbat manbayidir”.



“Sinfda birdamlik bo'lmasa, do'stlik bo'lmaydi”.

? “Yordam chaqirig'i” nima?

Yordam chaqirig'i – bu bitta qo'l bilan bajariladigan imo-ishora bo'lib, shaxs video-qo'ng'iroqda yoki shaxsan boshqalarga o'zini tahdid ostida his qilayotganini va yordamga muhtojligini bildirish uchun foydalaniladi.

Yordam chaqirig'i COVID–19 pandemiyasi bilan bog'liq o'z-o'zini izolyatsiya qilish choralarini sababli dunyo bo'ylab uyda zo'rvonlik holatlarining ko'payishiga qarshi kurashish vositasi sifatida ommalashgan.

Agar biror shaxs zo'rvonlikka uchrayotganligi haqida boshqalarga og'zaki yoki boshqa vositalar bilan bayon eta olmasa, yordam chaqirig'idan foydalanishi mumkin.

Quyidagi harakatlar ketma-ketligi orqali shaxs boshqalarga zo'rvonlik qurboni bo'layotganligi haqida xabar berishi mumkin.

Harakatlar ketma-ketligi:

1. Kaftni ochiq holda ko'tarish;
2. Bosh barmoqni kaft ichiga bukish;
3. To'rtta barmoq bilan bosh barmoqni yopish.

Shu qo'l harakatini bir necha bor takrorlash orqali yordam chaqirig'i beriladi.



1-harakat



2-harakat



3-harakat



Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

o'ziga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi to'g'risidagi ariza bilan tegishli vakolatli organlarga hamda tashkilotlarga yoxud sudga murojaat etish; maxsus markazlarda, shuningdek bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish;

ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa ularni bu haqda xabardor qilish;

sodir etilgan tazyiq va zo'rvonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etish.

Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchi yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.



Ishonch telefoni nima?

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish to'g'risida axborot olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining butun hududida tun-u kun ishlaydigan, bepul telefon liniyasi tarmog'i (ishonch telefoni) ishga tushirilgan.

Ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilgan shaxslar darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlarning himoyasiga olinadi. Zo'rvonlikni sodir etgan shaxslar javobgarlikka tortiladi.



Himoya orderi nima?

Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga davlat himoyasini taqdim etuvchi, ularga tazyiq o'tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo'rvonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan ta'sir choralarini qo'llashga sabab bo'ladigan hujjat.

Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan fuqaroning o'rniga, uning yaqinlari, qo'shni yoki qarindoshlari ham himoya orderini jabrlanuvchiga berish uchun murojaat qilishi mumkin.

Holat haqida xabar bergan shaxslar hamda tazyiq va zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarning shaxsiga doir ma'lumotlari sir saqlanadi.



Ijodiy faoliyat

Zo'rvonlikdan saqlanish uchun shaxsiy reja

Quyida zo'rvonlikdan saqlanish uchun shaxsiy rejangizni ishlab chiqing.

1. Qanday holatlarda o'zingizni zo'rvonlik qurboni deb his qilasiz?
(Masalan: kimdir sizni...?)

Javob: _____

2. Bunday paytda kimdan yordam so'rash mumkin deb o'ylaysiz?
(Oilada? Maktabda?)

Javob: _____

3. Zo'rvonlik sodir bo'lsa, qaysi davlat organiga murojaat qilish mumkin?

Javob: _____

4. Boshqalarga nisbatan zo'rvonlik sodir etilsa, qanday yordam bera olasiz?

Javob: _____



! Tazyiq va zo'rvonlikka qarshi choralar

1 Kimdir sizga noto'g'ri munosabatda bo'lsa, bu haqda ota-onangizga, sinf rahbaringizga yoki katta yoshli qarindoshingizga ayting. Bu – "shikoyat" emas, bu – o'zingizni himoya qilishdir.

2 Tazyiq yoki zo'rvonlik sizga qarshi qaratilsa, yolg'iz qolmang. Do'stlaringiz bilan bo'ling, guruhdan ajralmang. Bu tajovuzkorlarni biroz to'xtatishi mumkin.

3 O'z shaxsiy ma'lumotlaringizni (telefon raqamingiz, uy manzilingiz, maktabingiz, rasmlaringiz) begona shaxslarga bermang. Bema'ni xat yoki izohlar kelib tushsa, ularni saqlab qo'ying va kattalarga ko'rsating.

4 Sizing huquqlaringizni himoya qiluvchi ishonch telefonlari mavjud. Favqulodda yoki zarur hollarda ishonch telefoni, masalan, 102 – IIB ga telefon orqali xabar bering.

5 Agar sinfdoshingiz, qo'shningiz yoki ukangiz, opangiz zo'rvonlikka uchrayotganini ko'rsangiz – befarq qolmang. Unga yordam bering.



TINCHLIK VA XAVFSIZLIKKA QARSHI JINOYATLAR

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi rasmlarga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

1. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarga qanday misollar keltira olasiz?
2. Sizningcha, bu kabi jinoyatlar boshqa jinoyatlardan qanday farqlanadi? Nima uchun?
3. Quyidagi rasmlarda qanday jinoyatlar aks ettirilgan? Nima uchun?
4. O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlarga misol keltiring. Fikringizni asoslab bering.
5. 2-rasmda keltirilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ shu kabi jinoyatlarga qarshi kurashda qanday faoliyat bilan shug'ullanadi?

1



2



3



Asosiy tushunchalar

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar – bu davlatning ichki yoki tashqi osoyishtaligini buzadigan, ijtimoiy tartibsizliklar yoki xavfli harakatlarga olib keladigan jinoyatlardir. Bunday jinoyatlar jamiyatdagi barqarorlikka, tinch hayotga va xavfsizlikka tahdid soladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha bu turdagi jinoyatlarga urushni targ'ib qilish, terrorizm, terrorizmni moliyalashtirish va yollanishni misol tariqasida keltirish mumkin.

Masalan, terrorchilik – bu aholiga qo'rquv solish yoki davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida portlash, otishma yoki boshqa zo'ravonlik harakatlarini sodir etishdir. Bunday jinoyatlar og'ir oqibatlariga olib keladi va jiddiy jazoga sabab bo'ladi.

Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun har bir fuqaro hushyor, qonunga itoatkor va mas'uliyatli bo'lishi kerak. Bunday jinoyatlarning oldini olish uchun yosh avlodga tinchlikning qadri, murosaning ahamiyati va zo'ravonlikka qarshi turish haqida doimiy tarbiya berish muhim hisoblanadi.



Yodda tuting

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar

Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar

Masalan, yollanish, agressiya, genotsid, urushni targ'ib qilish

O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar

Masalan, davlatga xoinlik qilish, josuslik, qo'poruvchilik

? Yollanish qanday jinoyat?

Yollanish – bu boshqa davlatlarning qurolli kuchlari tarkibida moddiy manfaatdorlik yoki boshqa biron shaxsiy manfaatni ko'zlab, o'zga davlat hududida yoki uning tarafini olib qurolli to'qnashuvda yoxud harbiy harakatlarda qatnashish.

? Agressiya qanday jinoyat?

Agressiya – bu bir davlat tomonidan boshqa davlatga qarshi kuch ishlatishdir. Agressiya xalqaro jinoyat hisoblanadi va buning uchun jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Agressiya turli shakllarda bo'lishi mumkin: qurolli bosqinchilik, boshqa davlat hududini egallash, harbiy kuch bilan tahdid qilish, mustaqillikka raxna solish yoki hukumatini zo'rlik bilan almashtirishga urinish.

1945-yilda qabul qilingan BMT Nizomida kuch ishlatish taqiqlangan va tinchlikni buzgan har qanday hujum agressiya deb baholanadi.

? Genotsid qanday jinoyat?

Genotsid – bu biror milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni butunlay yo'q qilish maqsadida qasddan amalga oshiriladigan jinoyatdir. Bu harakatlarda odatda guruh a'zolarini o'ldirish, ularga og'ir tan jarohati yetkazish, yashash uchun yaroqsiz sharoitlarga majburlash, guruh ichida tug'ilishlarning oldini olish yoki bolalarni majburan boshqa guruhga topshirish shaklida bo'ladi. Genotsid xalqaro huquqda insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyatlardan biri deb tan olingan. BMT 1948-yilda "Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to'g'risida"gi Konvensiyani qabul qilgan bo'lib, unga ko'ra bunday jinoyatlar xalqaro jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.



Vatanga xizmat oliy saodat!



Xulosa qiling

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga ko'ra, terrorchilik harakatlari haqida ma'lumotni yashirish yoki xabar qilmaslik jinoyiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Agar kimdir tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakati haqida bilsa, lekin bu to'g'risida tegishli organlarga xabar bermasa, u jinoyat sodir etgan deb hisoblanadi.



Qonun belgilaydi

Qo'poruvchilik, ya'ni O'zbekiston Respublikasining davlat organlari faoliyati yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligiga yoki iqtisodiyotiga putur yetkazish maqsadida odamlarni qirib yuborish, ularning sog'lig'iga ziyon, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakatlar – o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 161-modda



Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlarga bo'lingan holda quyidagi detektiv jumboqni muhokama qiling.

Bunday vaziyatlarda jinoyatchi shaxslar bilan muzokara olib borishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida fikr bildiring.

Favqulodda holat yuz berdi. Janob Sinchkov noma'lum shaxs tomonidan egallab olingan samolyot ishi bo'yicha shahar aeroportiga yetib keldi. Jinoyatchi shaxs fuqarolik samolyotidagi 16 nafar yo'lovchi va 3 nafar ekipaj a'zosini garovga olgan edi.

U ichki ishlar xodimlaridan ikkita parashut va bir milliard so'm talab qildi.

Jinoyatchi shaxs ikkita parashut so'raganligi uchun tezkor guruh a'zolari samolyot bortida jinoyatchining sherigi bor degan xulosaga kelishdi.

Janob Sinchkov esa bu chalg'ituvchi usullardan biri ekanligini isbotlab berdi.

Savol. Janob Sinchkov nega bunday xulosaga keldi?





Yedda tufing

O'zbekiston Respublikasi terrorizmga qarshi kurash sohasida bir nechta muhim yo'nalishlarda tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Avvalo, milliy qonunchilik bazasi kuchaytirildi. Jinoyat kodeksiga terrorizm, ekstremizm va diniy adovatga oid normalar kiritildi. 2000-yilda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tarkibida terrorizmga qarshi kurash bo'linmalari faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, mazkur organlar tomonidan chegara hududlarda xavfsizlik choralari qat'iylashtirilib, kuchli nazorat ishlari doimiy asosda olib borilmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy sohada ham turli tushuntirish va targ'ibot ishlari muntazam o'tkazilmoqda. Ommaviy axborot vositalari yordamida yoshlar orasida ekstremistik g'oyalarning oldini olishga qaratilgan turli dasturlar yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan bir necha marta "Mehr" operatsiyalari olib borildi. Bu orqali ekstremistik guruhlariga qo'shilib qolgan O'zbekiston fuqarolari Yaqin Sharqdan yurtimizga qaytarib olib kelindi.

Bundan tashqari, ekstremistik g'oyalarga ergashgan shaxslarga doimiy ravishda psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilmoqda. Bunday shaxslarni sog'lom turmush tarziga qaytarish ishlari uzluksiz davom etmoqda.



? Ekstremizm qanday jinoyat?

Ekstremizm – ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllaridan biri.



Izlanishda davom eting

Quyidagi xorijiy davlatning terrorizmga qarshi kurash siyosati bilan tanishib chiqing.

Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha milliy qonunchilikni rivojlantirishga qaratilgan qanday chora-tadbirlarni taklif etgan bo'lar edingiz?

Singapurda terrorizmga qarshi kurash kuchli nazorat va profilaktik yondashuv asosida olib boriladi. Bu davlatda "Ichki xavfsizlik to'g'risida"gi qonun mavjud bo'lib, unga ko'ra terrorchilikda gumon qilingan shaxslar sud qarorisiz ikki yilgacha hibsdan saqlanishi mumkin.

Shuningdek, ekstremistik g'oyalarga qarshi kurashish uchun maxsus diniy maslahat guruhi tashkil etilgan. Guruh tarkibidagi diniy ulamolar va mutaxassislar ekstremistik fikrlarga ega bo'lgan shaxslar bilan suhbat o'tkazib, ularni tinchlik, ijtimoiy totuvlik g'oyalari qaytarishga harakat qilishadi.




IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLAR



Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi rasmlarga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

1. Quyidagi rasmlarda qanday jinoyatlar aks ettirilgan deb o'ylaysiz?
2. O'g'rilik va talonchilik jinoyatlari bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Nima deb o'ylaysiz, nima sababdan bugungi kunda firibgarlik jinoyati keng tarqalmoqda?
4. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?



Asosiy tushunchalar

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar – bu moddiy manfaat orttirish maqsadida iqtisodiy tartiblarni buzish bilan bog'liq jinoiy qilmishlar bo'lib, ular davlat, tadbirkorlar yoki boshqa shaxslarning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazadi.

Bunday jinoyatlarga firibgarlik, o'g'rilik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, bosqinchilik, o'zganing mulkini o'zlashtirish kabilarni misol sifatida keltirish mumkin.

Bu jinoyatlar iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi, shaxslarning o'zaro ishonch muhitini buzadi. Shu bois bunday huquqbuzarliklarga qarshi kurashish har bir davlat uchun muhim vazifa hisoblanadi.





Asosiy tushunchalar

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar

O'zgarar mulkini talon-toroj qilish



Bosqinchilik



Tovlamachilik



O'g'rilik



Talonchilik



Firibgarlik

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar



O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish



Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni yasash va o'tkazish



Soliqlar yoki yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash



Elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish



Qimmatbaho metallarni topshirish qoidalarini buzish

O'zgarar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar



Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish

Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilishga oid boshqa jinoyatlar



Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish

Yodda tuting



Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar ichida shaxslarning hayoti va sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan jinoyat bosqinchilik hisoblanadi.

Bosqinchilik jinoyati boshqa shaxslarning mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish yoki shunday zo'rlik ishlatish orqali qo'rqitish yo'li bilan sodir etiladi.

Masalan, shaxslarning uy-joyi yoki ishxonalariga bostirib kirib, qurol bilan tahdid qilish orqali mol-mulkni talon-toroj qilish bosqinchilik jinoyati hisoblanadi.



Tovlamachilik boshqa shu kabi jinoyatlardek mulkiy manfaatdorlik maqsadida amalga oshiriladi. Mazkur jinoyat turli vositalardan foydalangan holda va turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Masalan: jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish; jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish.

Misol uchun, boshqalarning shaxsiy rasm va videolarini tarqatish bilan qo'rqitib, jabrlanuvchilardan pul talab qilish tovlamachilik jinoyati hisoblanadi.



Talunchilik jinoyatida o'zganing mulki ochiqdan ochiq talon-toroj qilinadi.

Masalan, maktab hovlisida yuqori sinf o'quvchisi Fayzbek kichik yoshdagi maktab o'quvchisining shaxsiy qo'l telefonini ochiqchasiga olib qo'ydi. Bu qilmish oqibatida Fayzbek maktab o'quvchisining mulkiga zarar yetkazdi.



Firibgarlik jinoyatida aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulki yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqi qo'lga kiritiladi.

Misol uchun, Mirfayz ijtimoiy tarmoqlarda "Arzon telefon sotaman" deb e'lon beradi. Pulni oldindan yuborgan mijozga telefonni yubormaydi va aloqani uzadi.



O'g'rilik – bu mol-mulkni yashirincha o'zlashtirish jinoyatidir. Bunda jinoyatchi boshqalarning mulkini noqonuniy ravishda egallab oladi. Bu jinoyat oqibatida ham mulkiy zarar yetkaziladi.

Masalan, Fayzbek do'konga xaridor sifatida kirib, sotuvchining e'tiborsizligidan foydalanib stol ustidagi telefonni yashirincha olib qochdi.



O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish jinoyati odatda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladi. Bu jinoyatda naf keltirmasligi ayon bo'lgan shartnomalar tuzish, masalan, O'zbekiston hududiga ma'naviy eskirgan yoki zamon talablariga javob bermaydigan asbob-uskunani yoxud texnologiyalarni olib kirishga qaratilgan bitimlar misol bo'la oladi. Bu jinoyat oqibatida davlat va jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkaziladi.



Qalbaki pul yasash va o'tkazish jinoyatida qalbaki banknotlar (qog'oz pullar), metall tangalar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar yoxud chet el valyutasi yasash yoki ularni o'tkazish bilan bog'liq jinoyiy qilmish nazarda tutiladi.



Soliqlar yoki yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirish hamda kamaytirib ko'rsatishda aks etadi.

Asosan, bu jinoyat uchun avval ma'muriy jazo qo'llaniladi. Ma'muriy jazo qo'llanilgach, shaxs o'z qilmishini takroran sodir etsa, so'ng jinoyiy javobgarlikka tortiladi.



Elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish jinoyati hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu qilmish uchun ham avval ma'muriy jazo qo'llaniladi. Shaxs mazkur qilmishini takroran sodir etsa, jinoyiy javobgarlikka tortiladi.



Yer ostidan qazib olingan qimmatbaho metall yoki toshlar davlatga topshirilishi lozim.

Aks holda, bu qimmatbaho metallarni topshirish qoidalarini buzish jinoyati sifatida baholanadi. Bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.



Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini tashabbusi bilan chiqish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Bu jinoyat ham avvalo, ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi. Qilmishni takroran sodir etish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Bu jinoyat ham avvalo, ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi. Qilmishni takroran sodir etish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.



Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazishda mulkdorda ancha miqdordagi ziyon kelib chiqadi. Bunday holat jinoyat deb topiladi.



Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlariga bo'lingan holda qimmatbaho durbinni o'g'irlagan shaxsni aniqlang?

Janob Sinchkov kemada sayohatga chiqqan edi. Bir kuni kema kapitani Janob Sinchkovni favqulodda vaziyat yuzasidan chaqirib qoldi. Kapitanning qimmatbaho durbini yo'qolgan edi. Kapitan boshqaruv kabinasidan chiqayotib, durbinni stol ustida qoldirganligini, ammo u qaytib kelganida, durbini joyida yo'q ekanligini aytib berdi.

Kapitan janob Sinchkov ishtirokida darhol gumonlanuvchi ekipaj a'zolarini chaqirdi. Ularning har biridan jinoyat sodir bo'lgan vaqtda nima bilan band bo'lganligini so'radi.

Oshpaz dedi: – “Men oshxonada ovqat pishirish bilan band edim. Yordamchilarimdan so'rashingiz mumkin. Boshqaruv xonasiga kirishimdan maqsad kapitandan qanday ovqat xohlashini so'rash uchun kirgandim, xolos”, – dedi.

Michman: – “Men kema motori bo'yicha kapitandan qo'shimcha topshiriq olish uchun xonaga kirgandim. U yo'q ekan. Qaytib chiqib ketdim”.

Dengizchi: – “Men kemadagi davlat bayrog'ini to'g'rilab qo'yayotgan edim. Shundan so'ng, kapitanni oldiga kirmoqchi bo'ldim. Qo'shimcha dam olish haqida so'ramoqchi edim. Lekin boshqaruv xonasida yo'q ekanligini oynadan ko'rib, xonaga kirganim ham yo'q”.

Janob Sinchkov hamma gumonlanuvchilarni diqqat bilan eshitib, ulardan qay biri o'g'rilikni sodir etganligini aniqladi.

Savol. Sizningcha, janob Sinchkov buni qanday aniqladi?



BOSHQARUV TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi vaziyatlar bilan tanishib chiqing va savollarga javob bering.

1-vaziyat. Dilnavoz haydovchilik guvohnomasini imtihonsiz olishni rejalashtirdi. U qarindoshi Safarmurod ismli shaxsdan yordam so'radi. Safarmurod imtihon markazida ishlovchi Xusrav ismli shaxsga 5 million so'm evaziga iltimosni yetkazishini aytdi. Dilnavoz pulni Safarmurodga berdi. Safarmurod esa markazdagi xodimga uchrashib, "imtihondan o'tkazib yubor" deb 4 million so'm pora berdi. Shundan so'ng huquq-tartibot organlari bu holatni aniqlab, har uchala shaxsni javobgarlikka tortdi.

Nima uchun bu holatda uchala shaxs ham jinoiy javobgarlikka tortiladi?



2-vaziyat. Xurrambek maktabni a'lo baholar bilan tamomlab, oliy ta'lim uchun kirish imtihonlarida ishtirok etdi. U imtihondan yuqori ball olishiga aniq ishonar edi. Biroq imtihon natijalari buning aksini ko'rsatdi. Xurrambek o'z bilimiga ishonganligi sababli Bilim va malakani baholash agentligiga shikoyat bilan murojaat qildi. Olib borilgan xizmat tekshiruvi natijasida ayrim mutasaddilar ma'lumotlar bazasiga noqonuniy o'zgartirish kiritgani aniqlanib, ularning ishi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirildi.

Mazkur vaziyatda qanday jinoyat sodir etilgan?



JINOYAT HUQUQI.
KRIMINOLOGIYA

Yodda tuting

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar ichida pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlari keng tarqalgan. Bunday jinoyatlar asosan davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari ishtirokida sodir etiladi.

Bunday jinoyatlar mansabdor shaxslar tomonidan qasddan vakolatlarini suiiste'mol qilishi yoki xizmat vazifalaridan chetga chiqishdan kelib chiqadi.

Bu jinoyatlar oqibatida xalqning davlat organlariga bo'lgan ishonchiga putur yetadi.





? Davlat ishtirokidagi tashkilot nima?

Davlat ishtirokidagi tashkilotga ikki xil ta'rif berish mumkin.

Birinchidan, davlat ulushi miqdori ellik foizdan ortiq bo'lgan yoxud davlat ulushi miqdori xo'jalik jamiyatining boshqa har bir aksiyadori (ishtirokchisi) ulushiga nisbatan ko'p bo'lgan tijorat tashkiloti. Masalan, davlat ulushi bo'lgan ishlab chiqarish korxonasi.

Ikkinchidan, to'liq yoki qisman davlat organi yoki davlat tashkiloti tomonidan tashkil etilgan notijorat tashkiloti. Masalan, davlat budjeti mablag'lari hisobidan tashkil etilgan universitet yoki kasalxona.



Qonun belgilaydi

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2-modda

Yodda tuting

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish



Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish

Pora berish



Pora olish



Pora olish-berishda vositachilik qilish



Hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatida davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkaziladi.

Bu jinoyat davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan noqonuniy foydalanishida aks etadi.

Misol uchun, davlat mansabdor shaxsi hech qanday tanlov yoki tender savdolarisiz davlat idorasini ta'mirlash ishlariga o'zining qarindoshini jalb etib, budget mablag'lariga ko'p miqdorda zarar yetkazadi.



Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatida ham davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkaziladi.

Bunda mansabdor shaxs o'ziga qonun bilan berilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqadigan harakatlarni qasddan sodir etadi.

Masalan, shahar hokimining o'z vakolati doirasiga kirmaydigan binolarni ijaraga qo'yish yoki tashqi ko'rinishini o'zgartirish bo'yicha qarorlar chiqarishi.



O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha pora olish, pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish ham jinoyat hisoblanadi.

Pora olish – bu mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalanib, biron-bir ishni bajarish yoki bajarmaslik evaziga pul, qimmatbaho buyum, xizmat yoki boshqa moddiy manfaat olishidir.



Pora berish – bu shaxsning mansabdor shaxsga o'z xizmat vazifasini noqonuniy tarzda bajarishi yoki bajarmasligi evaziga pul, qimmatbaho buyum, xizmat yoki boshqa moddiy manfaatni berishida aks etadi. Bu harakat orqali shaxs o'z foydasini ko'zlab, qonuniy tartibni buzishga urinadi.



Pora olish-berishda vositachilik qilish – bu ikki tomon, ya'ni pora oluvchi va pora beruvchi o'rtasida aloqani ta'minlab berishdir. Vositachi shaxs porani pora beruvchidan olib, pora oluvchiga taqdim etadi.



Hamkorlikda bajaramiz

Quyidagi detektiv jumboq bilan tanishib chiqing. Kichik guruhlarda masalaning yechimini bering.

Janob Sinchkov pora olish jinoyati bo'yicha tezkor tadbir tashkil etishda ishtirok etayotgan edi. Maqsad – pora olish jinoyatini sodir etishni rejalashtirgan uddaburon korxonada direktori Javlonbekni qo'lga olish edi. Tezkor tadbir rejasi bo'yicha Samandar ismli fuqaro korxonada direktori Javlonbekka 1000 AQSH dollari miqdorida pora berishi kerak edi.

Dastlab, hammasi rejadagidek amalga oshirildi. Samandar porani berdi, Javlonbek uni oldi. Samandar maxsus belgi berishi bilan direktor xonasiga Janob Sinchkov va ichki ishlar xodimlari kirib keldi.


Direktor o'zini vazmin tutgan holda, kotibasini chaqirib, stoldagi choynakka achchiq qilib ko'k choy damlashni buyurdi.

Janob Sinchkov va ichki ishlar xodimlari berilgan porani, ya'ni jinoyat izini qidira boshlashdi. Ammo Javlonbekdan ham, hattoki uning xonasidan ham pul topilmadi.

Javlonbek kulimsirab, – “Bekorga urinyapsizlar. Men hech qachon pora olmaganman”, – dedi.

Janob Sinchkov esa – “Pulni nima qilganingizni yaxshi bilaman”, – deb javob berdi.

Savol. Pora deb berilgan pul qayerga yashirilgan?



JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI


Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi vaziyatlarda jinoyat-protsessual huquqining qaysi qoidalari aks ettirilgan? Fikringizni asoslab bering.



1-vaziyat. Tergovchi jinoyat ishi bilan shug'ullanmoqda. U tergov jarayonida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi talablariga qat'iy amal qiladi. Hech bir protsessual harakat tegishli hujjatlarsiz bajarilmaydi. Har bir protsessual qaror qonun asosida chiqariladi.

2-vaziyat. Ayblanuvchining o'g'rilik sodir etishi kuzatuv kameralarida aniq tasvirga olingan. Uning ishi sudda ko'rib chiqilmoqda. Sudya, sud kotibi, prokuror hamda boshqa sud ishtirokchilari uning aybini isbotlab berish uchun dalil ko'rsatishdi.



3-vaziyat. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, prokuror va advokatga sud jarayonida teng imkoniyatlar yaratilgan. Har ikki shaxs ham jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash, ish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirish, sud jarayonida faol qatnashish huquqiga ega.

4-vaziyat. Barcha sudlarda jinoyat ishlari oshkora ko'riladi, bundan davlat sirlarini qo'riqlash manfaatlariga zid keladigan hollar, shuningdek jinsiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar ko'rilayotgan hollar mustasno. Sud jarayoni videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.



5-vaziyat. Jinoyat ishlarini ko'rib chiqayotgan sudyaning faoliyatiga nisbatan aralashuvlar qonun bilan taqiqlanadi. Sud majlisida barcha tomonlar tinglanadi, dalillar tekshiriladi. Sudya turli siyosiy yoki ma'muriy bosimlarsiz mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hech bir shaxs sud faoliyatiga aralashishi mumkin emas.

6-vaziyat. Moddiy jihatdan ehtiyojmand shaxs jinoyat sodir etdi. Unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi. U dastlabki tergov paytida aybni tan olmadi va o'zining aybsizligini isbotlash uchun advokat yollashni so'radi. Tergov organlari uning bu huquqini ta'minlab berishdi. Unga davlat hisobidan advokatlik xizmati taqdim etildi.






Asosiy tushunchalar



Jinoyat protsessual huquqi – bu jinoyat ishlarini yuritish tartibini o'rnatuvchi huquq sohasi bo'lib, jinoyat sodir etilgan holatda davlat organlari qanday harakatlar qilishi kerakligini belgilab beradi. Bu soha dastlabki tergov, surishtiruv, jinoyat ishlari bo'yicha sudda ish yuritish jarayonlarini qamrab oladi. Jinoyat protsessual huquqi jinoyat ishining boshlanishidan tortib, hukm chiqarish va uni ijroga qaratishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni nazarda tutadi.

Yodda tuting

Jinoyat huquqi va jinoyat protsessual huquqi – jinoyat ishlarini yuritishda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, biroq mazmunan va vazifasi jihatidan farq qiladigan ikki mustaqil huquq sohalaridir. Ular bir-biridan quyidagi umumiy xususiyatlar bilan farq qiladi.



Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir.





Xulosa qiling

Jinoyat protsessining barcha prinsiplari o'ziga xos umumiy xususiyatlarga ega. Avvalo, bu prinsiplar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va Jinoyat-protsessual kodeksi-ga asoslanadi. Ular fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qiladi. Har bir prinsip sud, prokuratura va tergov organlari uchun majburiy hisoblanadi. Ularning buzilishi protsess qonuniyligini shubha ostida qoldiradi.

Prinsiplar o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi va mustahkamlaydi. Biri ikkinchisini taqozo etadi. Masalan, sud mustaqilligi prinsipi qonuniylik prinsipini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, prinsiplar ish yuritishning barcha bosqichlariga: dastlabki tergovdan tortib sud qarorigacha tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, barcha prinsiplar demokratik qadriyatlarga, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Ular shaxsni asossiz javobgarlikka tortmaslikni, odil sudlovni va qonuniy tartibda ish yuritishni kafolatlaydi. Har bir protsessual harakat qonunga va prinsiplarga muvofiq amalga oshirilishi shart, aks holda protsess natijalari bekor qilinishi mumkin.

Jinoyat protsessining barcha prinsiplari shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashda ustuvor g'oya hisoblanadi.



Yodda tuting

Jinoyat protsessi prinsiplari

Qonuniylik

Oshkoralik

Sudyalarning mustaqilligi

Fuqarolarning tengligi

Aybsizlik prezumpsiyasi

Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi

Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish

Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

Himoyalanish huquqi bilan ta'minlash va boshqalar





Asosiy tushunchalar

Qonuniylik	Sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, himoyachi, shuningdek jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga aniq rioya etishlari va ularning talablarini bajarishlari shart.
Oshkoralik	Barcha sudlarda jinoyat ishlari oshkora ko'riladi, bundan davlat sir-larini qo'riqlash manfaatlariga zid keladigan hollar, shuningdek jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar ko'rilayotgan hollar mustasno.
Sudyalarning mustaqilligi	Odil sudlovni amalga oshirishda sudyalarning mustaqilliklari hamda faqat qonunga bo'ysunadilar.
Fuqarolarning tengligi	Jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.
Aybsizlik prezumpsiyasi	Shaxsning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.
Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi	Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilganda jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha cho-ralarni ko'rishlari shart.
Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish	Sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ishda qatnashayotgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shart. Hech kim qiynoqqa solinishi, tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.
Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki	Jinoyat ishi bo'yicha tergov olib borish va ishni sudga ko'rish chog'ida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat sodir etilgan holatlarni aniqlab olish, aybdorlarni qidirish va fosh etishda jamoatchilik yordamidan foydalanishga haqlidir.
Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq jinoyat ish-lari bo'yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi.
Himoyalaniish huquqi bilan ta'minlash	Shaxslar himoyalaniish huquqiga ega bo'lib, ularga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.



Yodda tuting

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi surishtiruv, dastlabki tergov va sudning protsessual harakatlarini ham qat'iy tartibga soladi. Bunday harakatlarga ushlab turish, olib qo'yish, tintuv o'tkazish va so'roq qilish kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Protsessual harakatlarga quyidagilarni ham misol qilish mumkin:



Shaxslar qanday holatlarda ushlab turilishi mumkin?

Shaxslarni ushlab turish asoslari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi bilan qat'iy tartibga solinadi. Jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin:

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatsalar;
- 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoxud uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi mavjud bo'lmagan yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.



So'roq qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan shaxslarni so'roq qilish quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

- 1) so'roq qilinuvchining shaxsini aniqlash;
- 2) so'roq qilinuvchining qaysi tilda ko'rsatma bera olishini aniqlash;
- 3) so'roq qilinuvchining huquq va majburiyatlarini tushuntirish;
- 4) so'roq qilinuvchiga ishning unga ma'lum bo'lgan holatlari to'g'risida so'zlab berishni taklif etish;
- 5) qo'shimcha savollar berish.



Tintuv o'tkazish qanday asoslarga ko'ra amalga oshiriladi?

Surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar yoki hujjatlar yoxud elektron ma'lumotlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda tintuv o'tkazishga asos bo'lishi mumkin. Tintuv o'tkazish sudning qarori asosida amalga oshiriladi.



Qonun belgilaydi

Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-modda



? Olib qo'yish tergov harakati uchun qanday asos mavjud?

Jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsalarning, hujjatlarning va elektron ma'lumotlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmasa, surishtiruvchi, tergovchi va sud ularni olib qo'yishga haqlidir.

Yodda tuting

Dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonida fuqarolarning, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash ta'minlanishi kerak.

Isbot qilishda quyidagilar taqiqlanadi:

1) shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etish;

2) zo'rlik, po'pisa qilish, aldash va qonunga xilof boshqa yo'llar bilan ko'rsatuv, tushuntirish, xulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishish;

3) tungi vaqtda, ya'ni kech soat 22:00 dan ertalab soat 6:00 gacha tergov harakatlari olib borish.

Xulosa qiling

Jinoyat protsessual huquqi bilan bir qatorda jinoyatlarni ochish va fosh etishda muhim rol o'ynaydigan soha kriminologiya hisoblanadi.

Kriminologiya – bu jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, ularni sodir etayotgan shaxslarning xususiyatlari, jinoyatchilik darajasining o'sishi yoki kamayishi kabi holatlarni o'rganuvchi fandır. U jinoyatlarning faqat natijasini emas, balki ularning ildizini, ya'ni nima sababdan jinoyat sodir bo'layotganini aniqlashga intiladi. Kriminologiya jinoyatchilikni kamaytirish, unga qarshi kurashish, profilaktika choralarini ishlab chiqish va jamoatchilikni jalb etish yo'llarini ham izlaydi. Bu fan jinoyatchilar portretini aniqlash, ularning yoshi, jinsi, ta'lim darajasi, oilaviy holati kabi belgilar asosida tahlil qilish orqali jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadi. Kriminologiya jinoyatchilikka qarshi kurashda ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi. Bu fanning asosiy maqsadi jamiyat xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shishdir.

Ijodiy faoliyat


Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing. Keltirib o'tilgan jinoyatlarni sodir etilish sabablarini aniqlashga harakat qiling.

Jinoyat	Kelib chiqish sabablari
O'g'rilik	
Firibgarlik	
Pora olish	
Pora berish	
Qasddan odam o'ldirish	

IJODIY FAOLIYAT

1-topshiriq.

Krossvordning javoblarini aniqlang.



Gorizontal →

3. Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish
5. Bir davlat boshqa davlatga qarshi kuch ishlatishi
7. Bunday harakatlari haqida ma'lumotni yashirish yoki xabar qilmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi
9. Bu fan jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, ularni sodir etayotgan shaxslarning xususiyatlarini o'rganadi
10. Jinoyat huquqining qaysi prinsipiga ko'ra jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo chorasi odilona bo'lishi lozim?

Vertikal ↑

1. Mansabdor shaxsga, o'z lavozimidan foydalalanib, biror ishni bajarishi evaziga beriladigan pul yoki boshqa moddiy boylik
2. Biror milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni butunlay yo'q qilish maqsadida qasddan amalga oshiriladigan jinoyat
4. Aybdordan davlat daromadiga undiriladigan pul summasi
6. O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlardan biri
8. Boshqa biron shaxsiy manfaatni ko'zlab, o'zga davlat hududida yoki uning tarafini olib harbiy harakatlarda qatnashish jinoyati



2-topshiriq.

Quyidagi detektiv jumboq bilan tanishib chiqing. Kichik guruhlarda muhokama qilib, uning javobini toping. Fikringizni asoslab bering.

Janob Sinchkov sahroda arxeologik tadqiqot olib borayotgan professor Rashidov va uning jamoasi bilan qadimiy shahar xarobalarini o'rganayotgan edi. Arxeologlar jamoasi bir necha kundan buyon qazishma ishlarini olib borar, kundan kunga topilmalar soni ham ortib borar edi. Kunlarning birida arxeolog yordamchisi Kamronbek "Oltin, tilla" deb qichqirib yubordi. Barcha jamoa vakillari voqea joyiga yetib kelishdi. Og'ir sandiq oltin tangalarga to'la edi. Hamma hayratda qoldi.

Barcha topilmalar singari bu sandiq ham professor Rashidovning chodiriga olib borib qo'yildi. Tunda jamoa a'zolari katta yutuqqa erishganliklarini nishonlashdi. Katta gulxan yoqib, uning atrofida raqsga tushishdi. Lekin tongda hammasi aksincha bo'ldi. Ertalab ta'minotchi Dostonning qichqirig'idan hamma uyg'onib ketdi. Professor Rashidov o'z chodirida jonsiz holatda topilgan edi. Barcha topilmalar, jumladan sandiq ham yo'q edi. Chodir atrofida bir necha tuyalarning izlari qolgan edi, xolos.

Janob Sinchkov barcha jamoa a'zolarini birma-bir so'roq qildi. Ular quyidagilarni bildirib o'tishdi.

Arxeolog yordamchisi Kamronbek: – "Men tunda hech qanday shubhali harakatlarni sezmadim. Chodirimga kirdim-u, qattiq uxlab qoldim. Mana, Ulug'bek buni tasdiqlashi mumkin. U ham mening chodirimdan joy olgan".

Ta'minotchi Doston: – "Men emas. Yo'q. Jinoyatni ichimizdagilar qilgan. Qotil ichimizda. Men kechasi ketmon va chopqi ovozlari eshitdim".

Ilmiy tadqiqotchi Ulug'bek: – "Kechagi qattiq charchoqdan keyin men ham Kamronbekning chodirida qattiq uxlab qolgandim. Tuyalar ham shu yerda, mana. Men ham tunda hech qanday shubhali narsani sezmadim".

Dotsent Baxtiyor: – "Balki mahalliy aholi tuyalarda kelib, ham qotillikni, ham o'g'rilikni sodir etishgandir? Har holda bu yerning aholisi juda yovvoyi ekan".

Savol. Sizningcha, jinoyatni kim sodir etgan? Fikringizni asoslab bering.



3-topshiriq.

Quyidagi vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Ularda jinoyat huquqining qaysi prinsiplari buzilganligini asoslab bering.



1-vaziyat. Mahalla faoli ijtimoiy tarmoqdagi o'z sahifasida mahalla raisi va mahalla noziri kasb faoliyatiga sustkashlik bilan yondashishini yozib chiqdi. Unda biror haqorat yoki tuhmatga oid ma'lumotlarni qo'llamadi. Biroq mahalla noziri fuqaroning jinoyat sodir etganligini aytdi.

2-vaziyat. Korxonada direktori va martabali mansabdor shaxs pora olish jinoyati bo'yicha sudlanayotgan edi. Har ikki jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi teng edi. Biroq sudya ularning har ikkisi uchun ikki xil jazo tayinladi. Martabali mansabdorga ozodlikni cheklash, korxonada direktoriga esa ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.



3-vaziyat. Maktab o'quvchisi sinfdoshining shaxsiy rasmlarini internet jahon tarmog'ida e'lon qilish bilan qo'rqitib, undan pul talab qildi. Jabrlanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qildi. Ichki ishlar xodimi vaziyatni o'rganib, gumonlanuvchining harakatlari qonunchilik bilan taqiqlanmaganligini aytdi.

4-vaziyat. Bir yigit og'ir ijtimoiy ahvolda edi. Juda nochor vaziyatda qolganligidan ko'chada ketayotgan bir ayolning hamyonini o'g'irlamoqchi bo'ldi. Ayol kishi jinoyatni darhol sezib qoldi. Yigitni to'xtatib qolib, ichki ishlar xodimlariga topshirdi. Yigitga nisbatan jinoyat ishi ochilib, sud tomonidan uch yilga ozodlikdan mahrum etildi.



5-vaziyat. Fermer xo'jaligining omboronasida yong'in chiqdi. Yong'in sababli katta miqdordagi mahsulot yonib ketdi. Fermer xo'jaligining rahbari hech qanday aniq dalillar bo'lmasa-da, ombor qo'riqchisiga barcha aybni "yukladi". Uning jinoyat sodir qilganiga oid hech qanday guvoh, video yoki boshqa ishonchli dalil yo'q. Qo'riqchi ayblovni inkor qildi.



6-vaziyat. Yo'l qurilishi bo'limi boshlig'i yirik davlat mablag'larini talon-toroj qildi. Tergov harakatlari ham buni tasdiqladi. Biroq u yuqori lavozimli qarindoshlari orqali tergov ishini to'xtatdi. Jinoyat ishini noqonuniy yo'l bilan "yopdi". Oqibatda u hech qanday javobgarlikka tortilmadi.



7-vaziyat. 11-sinf o'quvchisi o'zining shaxsiy blogini yuritardi. Bir kuni ijtimoiy tarmoqlarda mas'ul mansabdor shaxsning faoliyatini tanqid qilib chiqdi. Ertasi kuni mansabdor shaxsning yordamchisi o'quvchi bilan gaplashib, unga nisbatan jinoyat ishi ochilishi bilan tahdid qildi. O'quvchini sud qilib, sudlov ishida birorta ham jurnalist va jamoatchilik vakillari qatnashmasligini aytdi.






4-topshiriq.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 144-moddasining bir qismi bilan tanishib chiqing. Quyidagi savollarga javob bering.

Jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a'zolarini ular davlat organiga, davlat muassasasiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikri va murojaatidagi tanqid uchun, xuddi shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun mansabdor shaxs tomonidan ta'qib etish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tanqid qilish tushunchasini muhokama eting. Tanqidning huquqiy "chegarasini" belgilab bering.





5-topshiriq.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan so'roq qilishning to'g'ri ketma-ketligini aniqlang.

a) huquq va majburiyatlarni tushuntirish;

b) so'roq qilinuvchining qaysi tilda ko'rsatuv bera olishini aniqlash;

c) so'roq qilinuvchining shaxsini aniqlash;

d) ishning holatlari to'g'risida erkin so'zlab berish;

e) qo'shimcha savollar berish.

6-topshiriq.

Quyidagilardan qaysi vaziyat jinoyat huquqi yoki jinoyat protsessual huquqiga aloqador ekanligini aniqlang. Jadvalni daftaringizga chizing va javobingizni kiriting.

No	Vaziyatlar	Jinoyat huquqi	Jinoyat-protses-sual huquqi
1	Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish		
2	Ayblanuvchini so'roq qilish		
3	Pora olish		
4	Jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsalarning tergovchi tomonidan olib qo'yilishi		
5	Pora olish-berishda vositachilik qilish		
6	Tintuv o'tkazish		
7	Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish		
8	Jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turish		
9	O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish		
10	Tergov jarayonida shaxslarni himoyalash huquqi bilan ta'minlash		



IV
BOB

EKOLOGIYA HUQUQI

EKOLOGIYA HUQUQI TUSHUNCHASI



Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi savollarga javob bering.

1. Siz yashaydigan hududda qanday ekologik muammolar mavjud? Ularning vujudga kelish sabablarini tushuntirib bering.
2. "Barqaror rivojlanish" deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, nega bugun butun dunyoda barqaror rivojlanishga katta e'tibor qaratilmoqda?
3. Tabiatni muhofaza qilish uchun davlat qanday huquqiy choralarni ko'rishini lozim?
4. Orol dengizi qurishi bilan bog'liq muammo haqida nimalarni bilasiz?



Asosiy tushunchalar

Ekologiya huquqi – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan huquqiy normalar tizimidir. Ushbu huquq sohasi inson va tabiat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi hamda davlat va fuqarolarning ekologik mas'uliyatini belgilaydi.



Yodda tuting

Atrof-muhit barqarorligi deganda tabiatning sog'lom holatda saqlanishi, havoning toza, suvlarning ifloslanmagan bo'lishi, odamlarning esa toza va xavfsiz muhitda yashashi tushuniladi.

Atrof-muhit barqarorligiga erishish uchun davlat Konstitutsiyada muayyan normalar belgilaydi va bu haqida alohida qonunlar qabul qiladi.



Qonun belgilaydi

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
49-modda**

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
62-modda**





Yodda tuting

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlari

Inson salomatligini saqlash

Ekologik muvozanatni ta'minlash

Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratish

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

Tabiatdan foydalanishda unga zarar yetkazmaslikni ta'minlash

Jonli tabiat turlari va genetik fondni saqlab qolish

Ekotizimlar, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlash

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash

Moddiy, madaniy merosga oid tabiat obyektlarini asrab qolish

Ijodiy faoliyat

*Xalqaro tashkilot haqidagi ma'lumot bilan tanishib chiqing.
Yurtimizdagi mavjud ekologik muammoni bartaraf etish haqidagi takliflaringizni ishlab chiqing.*

YUNEP (United Nations Environment Programme) – BMT-ning atrof-muhit bo'yicha maxsus dasturi bo'lib, Stokgolmda 1972-yilda tashkil etilgan. Uning bosh qarorgohi Keniya poytaxti Nayrobi shahrida joylashgan. YUNEPning asosiy vazifasi – global ekologik muammolarni aniqlash, hal qilish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdir. Tashkilot davlatlarga ekologik siyosat yuritishda yordam beradi, ekologik bitimlar loyihasini ishlab chiqadi va ekologik ta'limni rivojlantiradi. YUNEP tashabbusi bilan har yili 5-iyun "Butunjahon atrof-muhit kuni" sifatida nishonlanadi.



Yodda tuting

"Yashil makon" – O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ekologik loyiha bo'lib, uning asosiy maqsadi – mamlakat hududida daraxt ekish orqali yashil maydonlarni kengaytirish va ekologik muhitni yaxshilashdir.

Mazkur umummilliy loyiha asosida quyidagilar amalga oshirilmoqda:

"Yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari" barpo etilmoqda;
transchegaraviy chang-qum bo'ronlari ta'sirini kamaytirish uchun "yashil qalqon"lar yaratilmoqda;

"Yashil to'lov" platformasi va "Yashil xayriya jamg'armasi" joriy qilinmoqda;
daraxtlarni pasportlashtirish ishlari yo'lga qo'yilmoqda.



Yodda tuting

O'zbekistonda atrof-muhit muhofazasiga oid asosiy qonun hujjatlari tizimi quyidagilardan iborat:


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi

"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun

"Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun



Izlanishda davom eting

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha Keniya tajribasini o'rganing. Bunday tartibni joriy etish masalasini kichik guruhlarda muhokama eting.

2017-yildan boshlab Keniyada bir martalik plastik pakettlardan foydalanish to'liq taqiqlandi. Ushbu qaror dunyodagi eng qat'iy "plastik taqiqlardan" biri hisoblanadi.

Taqiq nafaqat plastik paketlarning ishlab chiqarilishi, balki ularning importi, savdosi va kundalik hayotda ishlatilishiga ham tegishlidir.

Mazkur tartibga rioya qilmagan fuqarolar katta miqdordagi jarimaga tortilishi yoki to'rt yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin. Plastik paket bilan mam-lakatga kirgan sayyohlardan ham bunday paketlar olib qo'yiladi.

Taqiqning asosiy maqsadi – atrof-muhitni, ayniqsa yer va suv resurslarini plastik chiqindilardan himoya qilishdir. Ilgari Keniyada ko'chalarda plastik ifloslanish keng tarqalgan. Bu esa hayvonlar hayoti, suv tizimlari va umumiy ekologik muvozanatga jiddiy zarar yetkaz-gan.


Taqiq kuchga kirgach, ko'chalarda tozalik ancha yaxshilandi. Fuqarolar mato, qog'oz, o'simlik barglari va boshqa ekologik xavfsiz muqobil mahsulotlardan foydalanishga o'tdilar. Keniya bugungi kunda Afrika qit'asidagi eng ilg'or ekologik siyosatga ega davlat hisoblanadi.





Tarixga nazar

Abu Rayhon Beruniy – mashhur qomusiy olim, geograf, tarixchi va tabiatshunos. U Xorazmda tug‘ilgan va birinchi Renessans davrida yashagan. Beruniy turli fanlarga oid ko‘plab asarlar yozgan. Uning eng mashhur kitoblari – “Hindiston” va “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” bo‘lib, bu asarlar tarix, dinlar, geografiya va tabiatga oid chuqur bilimlarni o‘z ichiga oladi.



Beruniy qimmatbaho toshlar va minerallar haqida “Mineralogiya” asarini (“Kitob al jamohir fi ma’rifat al-javohir” – “Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami”) yozgan. Bu asar hozirga qadar o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Bu asarda muallif 300 dan ziyod minerallarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini tushuntirib bergan.

Xulosa qiling

Tabiat – kelajak avlod uchun bizdagi omonatdir.

Inson bugun foydalanayotgan havo, suv, yer, o‘rmon, hayvonot va o‘simlik dunyosi faqat bugungi avlodniki emas. Bu boyliklar bizga vaqtincha ishonib topshirilgan. Har bir odam bu omonatga xiyonat qilmasligi, uni asrab-avaylashi shart.

Kelajak avlod sog‘lom hayot kechirishi uchun biz bugun mas‘ulmiz. Tabiatni asrash – bu nafaqat qonun talabigina emas, balki insoniylik burchidir.

Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlarga bo‘lining. Quyidagi jadvalni daftaringizga tushiring. Keltirilgan ekologik muammolarni muhokama eting. Ularning kelib chiqish sabablarini aniqlang. Bunday muammolarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqing.


No	Ekologik muammolar	Kelib chiqish sabablari	Oldini olish choralari
1	Qurg‘oqchilik		
2	O‘rmon yong‘inlari		
3	Havoning ifloslanishi		
4	Tuproq holatining yomonlashuvi (degradatsiya)		
5	Global haroratning ko‘tarilishi		
6	Daraxtlarning kesilishi		
7	Biologik xilma-xillikning yo‘qolishi		
8	Radioaktiv ifloslanish		

EKOLOGIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi rasmlarga e'tibor qarating va savollarga javob bering.

1. Sizingcha, quyidagi rasmlar orasida qaysi biri eng og'ir huquqbuzarlik hisoblanadi?
2. Ushbu huquqbuzarliklarga og'irlik darajasiga qarab 1 dan 5 gacha baho bering.
3. Sizingcha, uchinchi va to'rtinchi holatlar o'rtasidagi asosiy farq nimada? Ular qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi?
4. Bu holatlar ichida inson salomatligiga bevosita xavf tug'diradigani aynan qaysi biri? Nima uchun?
5. Siz yashaydigan hududda ushbu huquqbuzarliklardan qaysi biri tez-tez uchraydi? Uni bartaraf etish uchun qanday choralar ko'rilmoqda yoki ko'rilishi kerak deb o'ylaysiz?





Asosiy tushunchalar

Ekologik huquqiy javobgarlik – bu atrof-muhitga zarar yetkazgan shaxslarga nisbatan qonun asosida qo'llaniladigan javobgarlik shaklidir. U ekologiya sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish, tabiatni muhofaza qilish va yetkazilgan zararni tiklashga qaratiladi.

Yodda tuting

Ekologik huquqiy javobgarlik to'rt shaklda bo'lishi mumkin: intizomiy, ma'muriy, fuqaroviy-huquqiy va jinoiy. Ular orasida ma'muriy javobgarlik eng ko'p uchraydigan shakldir. Masalan, chiqindilarni ruxsatsiz tashlagan yoki daraxtni noqonuniy kesgan shaxsga nisbatan jarima choralari qo'llaniladi.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik esa zarar ko'rgan shaxs yoki tashkilot foydasiga moddiy yoki ma'naviy zarar qoplab berishni nazarda tutadi. Misol uchun, korxonada ifloslantirgan hududni tozalash yoki suv manbayiga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash majburiyati yuklatilishi mumkin.


Jinoiy javobgarlik esa atrof-muhitga og'ir zarar yetkazgan hollarda qo'llaniladi. Bunda aybdorga nisbatan jarima, hattoki ozodlikdan mahrum qilish kabi jazo choralari belgilanishi mumkin.

Ekologik huquqiy javobgarlik fuqarolarning tabiatga nisbatan mas'uliyatini oshirish, qonunlarga rioya qilishni ta'minlash va ekologik barqarorlikni saqlashda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qiling

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining sakkizinchi bobi ekologiyaga oid huquqbuzarliklarga bag'ishlangan. Mazkur bob "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" deb nomlanadi. Bu bobda shaxslar tomonidan atrof-muhitga, tabiiy resurslarga zarar yetkazish yoki ekologik qonunlarni buzganlik uchun belgilanadigan ma'muriy javobgarlik turlari keltirib o'tiladi.

Unda keltirilgan har bir moddada huquqbuzarlikning aniq turi, unga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari aniq belgilangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad shaxslarni ekologiyaga oid qonunchilik hujjatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash va tabiatga yetkazilgan zararning oldini olishdir.





Yodda tuting

Ma'muriy javobgarlikka sabab bo'luvchi huquqbuzarliklarga misollar

Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish

Foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish

Suv resurslarini muhofaza qilish qoidalarini buzish

Suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini buzish

Daraxtlarni, butalarni, boshqa o'simliklarni va nihollarni qonunga xilof ravishda kesish

Saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarni saqlash

Belgilanmagan joylarga qurilish chiqindilarini tashlash

Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarni yig'ish

O'rmonlarda yong'in xavfsizligi talablarini buzish

Qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya etmaslik

Atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik


Ov qilish va baliq ovlash qoidalarini buzish



Xulosa qiling

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining to'rtinchi bo'limi "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar" deb nomlanadi. Mazkur bo'lim atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan qonuniy, oqilona foydalanishga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik choralarini o'z ichiga oladi.

Ushbu bo'limning asosiy maqsadi inson salomatligi va hayoti uchun muhim bo'lgan tabiiy muhitni saqlash, ekologik qonunbuzarliklarning oldini olish va bu sohadagi qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilashdir.





Ekologiya sohasidagi jinoyatlarga misollar

Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish

Ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin qayta sodir etish

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni shikastlantirish yoxud nobud qilish

Olovga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish natijasida ekinzorlarni, daraxtlarni nobud qilish bilan ko'p miqdorda zarar yetkazish

Foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish

Ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin qayta sodir etish

Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish

Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish orqali og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lish

Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish

Yerlarni ifloslantirish yoxud buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lish





Xulosa qiling

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining sakkizinchi bobi va Jinoyat kodeksining to'rtinchi bo'limi ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni tartibga soladi. Ular har ikkisi tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitni asrash va ekologik qonunlarga rioya etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq ular o'rtasida javobgarlik darajasi jihatidan sezilarli farqlar mavjud.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks ma'muriy huquqbuzarliklarni o'z ichiga oladi. Bu huquqbuzarliklar, odatda, yengil yoki o'rta darajadagi qoidabuzarliklar hisoblanadi. Masalan, chiqindilarni belgilangan joydan tashqariga tashlash, daraxtlarni ruxsatsiz kesish, suv havzalarini yengil darajada ifloslantirish kabilar. Bu holatlarda jazo sifatida ko'p hollarda jarima jazosi qo'llaniladi. Bunday huquqbuzarliklar ma'muriy organlar yoki ekologiya nazorati bo'yicha vakolatli idoralar tomonidan aniqlanadi va jazolash ham ularning vakolatiga kiradi.

Jinoyat kodeksi esa ekologiya sohasidagi jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Bu bo'limda og'ir va xavfli harakatlar, ya'ni atrof-muhitni og'ir darajada ifloslantirish, yo'qolib borayotgan hayvonlar yoki o'simlik turlarini yo'q qilish kabi holatlar jinoyat sifatida baholanadi. Bu holatlarda jinoyat ishi tergov qilinadi va faqat sud tomonidan jinoyat jazosi belgilanadi. Jazolar esa og'irroq bo'lib, hattoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi ham qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks doirasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgar shaxs sudlangan hisoblanmaydi. Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlik esa sudlanganlik holatini keltirib chiqaradi. Shu sababli, bu ikki hujjat ekologik xavfsizlikni ta'minlashda turli darajadagi huquqiy vositalar sifatida xizmat qiladi.



Qonun belgilaydi

Atrof tabiiy muhitga zarar yetkazgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar yetkazgan zararni, shu jumladan boy berilgan foyda o'rnini qonunchilikka muvofiq qoplashlari shart.

Ekologiya talablarini buzganlikda ayblanayotganlarning ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi ularni atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod etmaydi.

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonun, 49-modda

Yuridik va jismoniy shaxslar atrof tabiiy muhitga, inson salomatligi va odamlarning mol-mulkiga, xalq xo'jaligiga ziyon yetkazayotgan ekologiya jihatidan zararli faoliyatni to'xtatish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilishga haqlidirlar.

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonun, 52-modda



“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonun



Izlanishda davom eting

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksidan quyidagi vaziyatlar uchun qanday jazo choralari qo'llanilishini aniqlang.



1-vaziyat. Xudoyor ismli fuqaro hovlisida sher bolalarini saqlab kelayotgan edi. U bu hayvonlarni noqonuniy yo'l bilan olib kelgan va ularni farzandlariga ko'rsatish, keyinchalik esa pullik xizmatlarni yo'lga qo'yish uchun foydalanmoqchi edi.

Tuman ekologiya inspeksiyasi xodimlari bu holatni aniqlab, hayvonlarni olib qo'ydi hamda Xudoyorga nisbatan ma'muriy javobgarlik ishi qo'zg'atildi.

2-vaziyat. Sherdor o'z uyida ta'mirlash ishlarini yakunlagach, qurilish chiqindilarini o'z hovlisiga yaqin bo'lgan bo'sh yerga olib borib tashladi. Chiqindilarni olib ketish uchun mo'ljallangan maxsus xizmatdan ham foydalanishni paysalga sola boshladi. Natijada mazkur hududda to'planagan chiqindilar atrof-muhitga zarar yetkaza boshladi.

Mahalla aholisi bu holatdan norozi bo'lib, ichki ishlar organiga murojaat qildi.



3-vaziyat. Amriddin va uning do'sti Alibek dam olish kunlari tog' yonbag'rida ov qilishga qaror qilishdi. Ular taqiqlangan uskunalar va qurol-yaroq yordamida ayiq ovlashni reja qilishdi. Ular ov qilish xavfsiz deb o'ylashdi va atrof-muhitga salbiy ta'sirini hisobga olishmadi. Alibek tog'dagi archazorlar ichidan yurib kelayotgan qo'ng'ir ayiqni mo'ljalga oldi.



4-vaziyat. Ko'p qavatli uy qurilishi olib borilayotgan hududda quruvchi korxonadan tomonidan changni bartaraf etish choralari rioya qilinmayapti. Qurilish maydonida yuk mashinalari tez-tez qatnashi, qurilish materiallarini joyida kesish, maydalash ishlari havoni ifloslantirmoqda. Maydon atrofida himoya to'siqlari o'rnatilmagan va suv bilan namlash ishlari amalga oshirilmagan. Natijada qurilishga yaqin joyda yashovchi fuqarolar tez-tez changdan shikoyat qila boshladi.



BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI MUHOFAZA QILISH

Faollashtiruvchi savollar

Quyidagi vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Ularda qanday huquqiy masalalar aks ettirilganligini muhokama qiling.



1-vaziyat. Guljahon tog'da sayr qilib yurib, yo'l-yo'lakay turli gullarni terib keldi. Pastga tushganida ekologiya inspektorlari terib olingan gullar ichida noyob turlar mavjudligini, bu qonunga zid ekanligini tushuntirishdi. Guljahonga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik bayonnomasi rasmiylashtirildi. Guljahon "gullarga "noyob" deb yozib qo'yilmagan-ku" deb shikoyat bildirdi.

Nima deb o'ylaysiz, o'simliklarga ehtiyotsizlikdan zarar yetkazish javobgarlikdan ozod etadimi? Nima uchun?

2-vaziyat. "Chaqqon" fermer xo'jaligi o'z ehtiyoji uchun quduq qazib, yerosti suvidan ikki yildan buyon foydalanib keladi. Ular bu ishni hech qanday ruxsatnomasiz amalga oshirgan. Natijada yaqin atrofdagi aholi quduqlarida suv sathi pasayib ketdi. Aholining e'tirozlari ortidan ekologiya inspektorlari fermer xo'jaligini ko'zdan kechirishdi. Fermer xo'jaligi rahbari – "Axir, suv hammaniki, nega menga jarima solasiz?", – deb raddiya bildirdi.

Yerosti suvlaridan foydalanish uchun ruxsatnoma olish kerakmi? Nima uchun?



3-vaziyat. Yirik sanoat korxonasi shahar chekkasida joylashgan bo'lib, uzoq yillar davomida atmosfera havosiga zararli gazlar chiqarib kelar edi. Ayniqsa, qish oylarida shamol yo'nalishi sababli tutun va gazlar yaqin atrofdagi aholi punktlariga tarqaladi. Bir necha oy ichida mahalla poliklinikasiga nafas olish yo'llari bilan bog'liq kasalliklar va allergik holatlar bilan murojaat qiluvchilar soni keskin oshib ketdi.

Ekologik nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvda korxonaning atrof-muhitga zarar yetkazayotganini tasdiqlovchi dalillar aniqlanadi. Natijada korxonaga nisbatan huquqiy chora ko'riladi, faoliyati vaqtincha to'xtatiladi va havoni tozalash qurilmalari o'rnatish majburiyati yuklatiladi.

Havoga zararli gazlar chiqaruvchi korxonalar qanday ta'sir choralari qo'llash mumkin?





Asosiy tushunchalar

Biologik xilma-xillik – bu Yer yuzida mavjud bo'lgan barcha tirik organizmlar: o'simliklar, hayvonlar, zamburug'lar va mikroorganizmlar hamda ularning yashash muhitlari va ekotizimlaridagi turli shakllar yig'indisidir.

Xulosa qiling

Biologik xilma-xillik inson va tabiat uchun juda muhim. U quyidagi sabablar tufayli muhim hisoblanadi:

Birinchidan, ekotizimlarning barqarorligini ta'minlaydi. Har bir tur o'z vazifasini bajaradi: ba'zilar tuproqni boyitadi, boshqalari changlatadi, ayrimlari zararkunandalarni nazorat qiladi. Shu orqali tabiat o'zini muvozanatda saqlaydi;

Ikkinchidan, biologik xilma-xillik inson hayoti uchun zarur bo'lgan resurslarni beradi. Oziq-ovqat, dori-darmon, qurilish materiallari va boshqa ko'plab mahsulotlar aynan turfa xil biologik turlardan olinadi;

Uchinchidan, u ilm-fan va texnologiyalar rivoji uchun imkon yaratadi. Ko'plab dori vositalari, yangi qishloq xo'jaligi mahsulotlari tabiiy turlarga asoslanib yaratiladi.

Shuningdek, biologik xilma-xillik madaniy va estetik ahamiyatga ega. Tabiat go'zalligi, sayyohlik imkoniyatlari va ko'plab xalq urf-odatlari shu turli-tumanlik bilan bog'liq.

Agar biologik xilma-xillik yo'qolsa, tabiatdagi muvozanat buziladi, ekologik inqirozlar yuzaga keladi va insoniyat yashash sharoitlaridan mahrum bo'ladi. Shu sababli uni asrash butun jamiyatning muhim vazifasidir.

Yodda tuting

O'zbekiston hududi tabiiy ekotizimlarning nihoyatda xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Tekis mintaqalarda cho'l ekotizimlari, tog' ekotizimlarida esa balandliklar, o'rmonzorlar mavjud.

Biologik xilma-xillikning eng markazini O'zbekiston hududi uchun tabiiy ekotizimlar (yer, suv), hayvonot va o'simlik dunyosi tashkil etadi.





Xulosa qiling

Mamlakatimizda yer, suv, hayvonot va o'simlik dunyosini asrab-avaylash bo'yicha qonunchilik qat'iy ishlab chiqilgan bo'lib, qonun normalarini buzganlik uchun javobgarlik choralari belgilangan.

Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy resurslar umum-milliy boylik hisoblanadi. Bu boyliklar bir kishiga emas, balki butun jamiyatga xizmat qiladi va kelajak avlodlarga o'tishi kerak bo'lgan umumiy meros hisoblanadi.



Qonun belgilaydi

Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umum-milliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umum-milliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 68-modda



Izlanishda davom eting

Tabiiy boyliklardan olingan daromadlarni yo'naltirishga oid xorij tajribasi bilan tanishib chiqing. Tahlil eting.

Birlashgan Arab Amirliklarida ham tabiiy resurslar milliy boylik sifatida qaraladi. Neft va gazdan tushgan daromad fuqarolar o'rtasida bevosita pul tarzida taqsimlanmaydi. Biroq ushbu daromad mamlakat budjetiga tushib, bilvosita yo'llar orqali aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, amirliklarning barcha fuqarolari uchun bepul tibbiy xizmat, boshlang'ich va oliy ta'lim mamlakat budjetidan moliyalashtiriladi. Aholi tibbiy va ta'lim xizmatlari uchun mablag' sarflamaydi. Shuningdek, Abu Dabi investitsiya jamg'armasi ham tashkil etilgan bo'lib, neftdan va boshqa moliyalashtirish resurslaridan tushgan daromadlar kelajak avlodlar uchun iqtisodiy barqarorlikni saqlash manbasi vazifasini bajaradi.




Yodda tuting

O'zbekistonda yerni muhofaza qilish bo'yicha asosiy huquqiy hujjat – Yer kodeksi hisoblanadi. Kodeksda yerdan oqilona va samarali foydalanish, uni muhofaza qilish va tiklash tartiblari belgilangan. Yer xalqning umummilliy boyligi sifatida qaraladi. Yerni ifloslantirish, buzish, eroziya va sho'rlanish kabi holatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Har bir shaxs yerdan foydalanishda ekologik xavfsizlik, barqarorlik va tabiatga zarar yetkazmaslik talablariga amal qilishi kerak. Yer resurslarini asrash davlatning, fuqarolarning va tashkilotlarning umumiy majburiyatidir.

Shuningdek, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodekslarida yerni muhofaza qilishga oid qo'shimcha normalar mavjud.



Asosiy tushunchalar

Yer haqidagi barcha ma'lumotlar – yerning o'lchami, joylashuvi, egasi, qanday maqsadda ishlatilayotgani – davlat kadastrida saqlanadi.

Bu ish Kadastr agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Kadastr – bu yerni hisobga olish, baholash va qonuniy nazorat qilishga xizmat qiladigan maxsus hujjatlar tizimi hisoblanadi.

Tarixga nazar

Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari"da yozilishicha, daraxt ekish va bog'lar barpo etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Harbiy yurishlar oralig'ida ham bog'lar tashkil etilgan. Temur bir shaharga kirar ekan, eng avvalo, "yo'l, suv va daraxtlar" holatini tekshirtirgan.

Jumladan, "Temur tuzuklari"da quyidagilar qayd etilgan:

"Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yoki biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin".





Hamkorlikda bajaramiz

Kichik guruhlarga bo'lingan holda, elektron davlat xizmatlari portali orqali yerga oid qanday davlat xizmatlaridan foydalanish mumkin ekanligini muhokama qiling.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga elektron shaklda murojaat qilinadi.

Natijada yer uchastkasi uchun kadastr hujjati va mulk huquqi guvohnomasi beriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i to'lanadi.



Tarixga nazar

Quyida "Avesto" kitobidan keltirilgan ma'lumot bilan tanishib chiqing.


Uning mazmunini muhokama eting. Qadimgi va hozirgi davrda suv resurslariga bo'lgan munosabatni solishtiring.

Nihoyat suvlarni olqishlaymiz.

Quyida oquvchi, yig'ilguchi va ravon oquvchi, ezgu niyatli suvlarni madh etamiz.

– "Ey, suvlar!

Sizlar yaxshilik bilan ravonasiz. Xilqatni yuvib pok etasiz va ikki jahon saodatiga sazovorsiz. Biz sizlarni e'zozlaymiz".



Yerosti suvlaridan foydalanish uchun ruxsatnoma qanday olinadi?

Agar siz yerosti suvlaridan foydalanmoqchi bo'lsangiz, "yerosti suvidan foydalanish uchun ruxsatnoma" olishingiz kerak.

Bunda ortiqcha ovoragarchilik talab etilmaydi. Barcha harakatlar onlayn bajariladi.

Arizani elektron shaklda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali – my.gov.uz yoki "Litsenziya" axborot tizimi – license.gov.uz orqali topshirishingiz mumkin. Arizaga yerosti suvidan foydalanishning joylashuv manzili, maqsadi, texnik talablar ilova qilinadi. Ruxsatsiz suv olish qonunbuzarlik hisoblanadi. Faqat ruxsatnoma asosida yerosti suvlaridan foydalanishga ruxsat etiladi.



Xulosa qiling

Atmosfera havosini muhofaza qilish huquqshunoslik nuqtayi nazaridan ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim bo'g'inidir. Toza havo biologik xilma-xillikni saqlash, o'simliklar va hayvonlar yashashi uchun zarur. Huquqiy normalar orqali sanoat chiqindilari me'yorlashtiriladi, ifloslanishga qarshi choralar belgilanadi. Bu orqali hayvonot va o'simlik dunyosi huquqiy jihatdan himoya qilinadi.

Ekologiya sohasidagi qonunlar, masalan, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun davlat va fuqarolar zimmasiga aniq majburiyatlar yuklaydi. Shunday qilib, atmosfera muhofazasi huquqshunoslik va biologik xilma-xillik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi.



Qonun belgilaydi

Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:
 o'z hayoti va sog'lig'i uchun qulay atmosfera havosidan foydalanish;
 atmosfera havosining holati hamda uni muhofaza qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli davlat organlaridan o'z vaqtida va ishonchli axborot olish;
 atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlar chiqarilishi hamda unga fizikaviy omillarning zararli ta'sir ko'rsatishi tufayli o'z sog'lig'iga va mol-mulkiga ziyon yetkazilgan hollarda zararning o'rni qoplanishi;
 atmosfera havosini muhofaza qilish masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish va jamoatchilik ekologik ekspertizasini amalga oshirishda ishtirok etish.

“Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida”gi qonun, 4-modda



Xulosa qiling

Hayvonot va o'simlik dunyosi biologik xilma-xillikning asosiy qismini tashkil etadi. Ularning mavjudligi ekotizim barqarorligini saqlaydi. O'zbekistonda bu boylikni huquqiy jihatdan muhofaza qilish “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida” va “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi qonunlar orqali tartibga solinadi. Shuningdek, biologik xilma-xillikni asrash “Qizil kitob” asosida amalga oshiriladi. Bu huquqiy asoslar orqali kamyob va yo'qolib borayotgan turlar himoya qilinadi. Biologik resurslar milliy boylik sanaladi va ularni saqlash har bir fuqaroning huquqiy va ekologik burchidir.



Izlanishda davom eting

“Qizil kitob” – bu yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o'simliklar turlari ro'yxati kiritilgan rasmiy nashrdir.


Mamlakatimizda bu kitob birinchi marta 1984-yilda nashr etilgan.

Bugungi kunda qizil kitob elektron shaklda e'lon qilinib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan “Qizil kitob” vaqti-vaqti bilan yangilanib boriladi. Unda noyob va yo'qolib borayotgan turlar haqida ma'lumotlar beriladi.

“Qizil kitob”ga kiritilgan turlar biologik xilma-xillikni saqlash va muhofaza qilish maqsadida alohida nazorat ostiga olinadi. Har bir tur haqida uning tarqalgan hududi, yashash muhitiga tahdidlar, sonining kamayish sabablari va uni asrash choralarini haqida ma'lumot beriladi. O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan hayvon yoki o'simliklarni ovlash, yo'q qilish, to'plash yoki savdoga chiqarish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining “Qizil kitob”iga 314 o'simlik va 206 hayvon turi kiritilgan. Masalan, qor qoplani, sayg'oq, jayron, Buxoro bug'usi kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. “Qizil kitob” ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish siyosatini samarali olib borish uchun muhim qo'llanma hisoblanadi.


“Qizil kitob” vaqti-vaqti bilan yangilanib boriladigan ma'lumotlar bazasi sifatida elektron shaklda yuritiladi va ilmiy-ommabop nashr sifatida chop etiladi.



IJODIY FAOLIYAT

1-topshiriq.

Krossvordning javoblarini aniqlang.



Gorizontal →

4. Kelajak avlod uchun bizdagi omonat nima?
7. Biologik xilma-xillikka kiruvchi olam
9. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ekologik loyiha
10. Qaysi huquq sohasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan huquq normalarini o'z ichiga oladi?

Vertikal ↑

1. Yerni hisobga olish, baholash va qonuniy nazorat qilishga xizmat qiladigan maxsus hujjatlar tizimi
2. Ekologiya sohasida zarar ko'rgan shaxs foydasiga moddiy yoki ma'naviy zarar qoplab berishni nazarda tutuvchi javobgarlik turi
3. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish harakati ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilsa, qanday javobgarlik kelib chiqadi?
5. Qaysi kitobga yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o'simliklar turlari ro'yxati kiritiladi?
6. Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar qanday boylik hisoblanadi?
8. "Mineralogiya" asarining muallifi



2-topshiriq.

Quyida taqdim etilgan vaziyat asosida rolli o'yin tashkillashtiring.

BMT bosh qarorgohida navbatdagi "Atrof-muhit va xavfsizlik" mavzusidagi xalqaro sammit bo'lib o'tmoqda. Unda ishtirok etayotgan har bir davlat global ekologik muammolar bo'yicha o'z pozitsiyasini bildiradi.

Siz – O'zbekiston delegatsiyasi a'zosisiz. Sizning vazifangiz mamlakatning ekologik holati, muammolari va xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki haqida so'z yuritish hamda takliflar bildirish hisoblanadi.

Vazifani amalga oshirish bosqichlari:

1. Tayyorgarlik ko'rish.

Delegatsiya a'zolari guruhlariga bo'linadi (3–4 kishidan). Har bir guruh:

O'zbekistonning bitta muhim ekologik yo'nalishini tanlaydi: (masalan: suv tanqisligi, Orol muammosi, iqlim o'zgarishi, chiqindilar, havo sifati, qayta tiklanuvchi energiya va boshqalar); tanlangan yo'nalishda asosiy muammo, milliy chora-tadbirlar va xalqaro tashabbuslar haqida 3-4 ta muhim fikr tayyorlaydi.

2. Chiqish qilish.

Har bir guruhdan bitta vakil sammitda chiqish qiladi (2–3 daqiqa). Chiqishda quyidagilar bo'lishi shart:

delegatsiya vakili sifatida o'zini tanishtirish;

O'zbekistondagi ekologik muammo haqida qisqacha ma'lumot berish;

qanday milliy huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi haqida so'zlash;

O'zbekistonning bu boradagi xalqaro hamkorligi haqida so'z yuritish;

BMT sammitiga mazkur muammoni hal etishga oid huquqiy yoki amaliy taklif kiritish.

3. Bahs-munozara va yakun.

Chiqishlardan so'ng "sammit tinglovchilari" (sinfdagi boshqa guruhlar) savollar beradi yoki qo'shimcha fikr bildiradi.

Yakunda eng yaxshi chiqish qilgan o'quvchi "BMTning eng faol vakili" deb e'tirof etiladi.





3-topshiriq.

Quyida keltirilgan vaziyatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risida fikr yuriting. Mazkur jadvalning javoblar qismini (to'g'ri, noto'g'ri) daf-taringizda to'ldiring. Fikringizni asoslab bering.

No	Vaziyatlar	To'g'ri	Noto'g'ri
1	Qishloq xo'jalik yerlarini istagan paytda qurilish uchun topshirish mumkin.		
2	Har bir ishlab chiqaruvchi korxonada ekologik ekspertizadan o'tmasdan ham faoliyat yuritishi mumkin.		
3	Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish faqat yirik sanoat uchun mo'ljallangan.		
4	Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.		
5	Noyob hayvonlar shaxsiy uylarda boqilayotgan bo'lsa, ovlash mumkin.		
6	Qurilish ishlari olib borilayotgan joydagi daraxtlarni kesish mumkin.		
7	Korxonada rahbariyati zaharli kimyoviy moddalarni daryoga oqizishi mumkin.		
8	Har kim qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqiga ega.		
9	Baliqchilar elektr toki yordamida baliq ovlashlari mumkin.		
10	Korxonalar tungi vaqtda zaharli gazlarni havoga chiqarib yuborishi mumkin.		



4-topshiriq.

Quyida keltirilgan muammoli vaziyat bilan tanishib chiqing.

Lutfiya opa juda ham uddaburon fermer edi. Onlayn-auksion orqali 5 gektar sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer uchastkasi unga ijara asosida ajratildi.

Ijara shartnomasida bu yer faqat qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun mo'ljallanganligi ko'rsatilgan edi.


Oradan bir yil o'tib, Lutfiya opa ushbu yerning bir gektar qismini zamonaviy issiqxona qurish uchun ijaraga berib yubordi. Bu issiqxonada gidroponika usuli, ya'ni tuproqsiz o'simlik yetishtirish texnologiyasi qo'llanildi. Ijara biznesini yo'lga qo'yib Lutfiya opa ham, ijarachi xo'jalik ham, ko'p daromad qilib keldi.

Biroq mahalliy hokimiyat organlari tomonidan navbatdagi tekshiruv o'tkazilishi hammasiga yakun yasadi.

Tekshiruvlar davomida bu holat tuman prokuraturasi tomonidan aniqlandi va mazkur yer bo'yicha qonunbuzilish holati qayd etildi.

Quyidagi savollarga javob bering:

- 1. Lutfiya opaning harakatida qanday qonunbuzilishlari mavjud? U qanday javobgarlikka tortilishi mumkin?*
- 2. Ushbu holat qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga zid hisoblanadi?*
- 3. Sug'oriladigan yerlarni boshqa toifadagi yerlar tasnifiga o'tkazish qanday tartibda amalga oshirilishi mumkin?*
- 4. Fermer tomonidan yerning bir qismini boshqa shaxsga ijaraga berish huquqini muhokama qiling.*
- 5. Mazkur holatda yer uchastkasi fermerdan olib qo'yilishi mumkinmi? Nima uchun?*
- 6. Vaziyatga huquqiy yechim bering.*




5-topshiriq.

Quyida keltirilgan O'zbekiston xartasiga e'tibor bering. Unda har bir ma'muriy-hududiy birliklar ajratib ko'rsatilgan. Har bir hududning o'ziga muvofiq ekologik muammolari mavjud.

Darslikning IV bobida o'rganganlaringiz va Geografiya faniga oid bilimlaringizga tayanib, xaritada ekologik muammolarni aks ettiring. Bu muammolarni hal etishda qanday huquqiy choralar ko'rish mumkin? Fikringizni asoslab bering.

Ekologik muammolarni qayd etish uchun quyidagi shartli belgilardan foydalaning:
Toza ichimlik suvining tanqisligi kuzatiladigan hududlar – “tomchi” belgisi;
Havo ifloslanishi yuqori bo'lgan hududlar – “shabboda” belgisi;
Daraxtlarning kesilishi ko'proq kuzatiladigan hududlar – “daraxt” belgisi.



6-topshiriq.

Quyidagi vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Ularda qanday huquqiy masalalar aks ettirilganligini muhokama qiling.

1-vaziyat. Bir viloyatda joylashgan dasht hududida yirik qurilish ishlari boshlandi. Qurilish kompaniyasi hech qanday ekologik ekspertizalarsiz ish olib bordi. Natijada bu hududda yashovchi noyob va himoya ostidagi hayvon turlari yashash joylaridan mahrum bo'ldi.

Og'ir texnika, chang, shovqin va ozuqa bazasining yo'qolishi tufayli hayvonlar ommaviy ravishda nobud bo'ldi. Atrof-muhitni muhofaza qilish organlari holatni o'rganib, qurilish ishlarining ekologik qonunlarga zid tarzda olib borilganini aniqladi. Qurilish to'xtatildi. Javobgar shaxslarga nisbatan huquqiy choralar qo'llanildi va hayvonot dunyosini tiklash bo'yicha choralar belgilandi.




2-vaziyat. Asliya oilasi bilan mashinada sayohatdan qaytayotgan edi. Ular mashinada shaharning chekka hududidan o'tayotganda, orqa o'rindiqda o'tirgan ukasi ichimlik suvi idishini mashinadan tashqariga uloqtirib yubordi. Otasi esa:

– “Yo'lda axlat qutisi yo'q-ku, baribir bu yerda hech kim yashamaydi”, – deb o'g'luga tanbeh bermadi.

Oradan biroz vaqt o'tib, yo'l yoqasidagi chiqindi qoplari yonidan o'tishdi.

Asliyaning otasi mashinani to'xtatdi. Mashinadagi eski buyumlarni olib chiqib, ularni chiqindilarning yoniga qo'yib, yo'lida davom etdi.

Asliya esa bu holatdan ich-ichidan bezovta bo'ldi. U maktabda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ekofaol edi.



7-topshiriq.

Quyida keltirilgan topshiriq bo'yicha kichik guruhlariga bo'lingan holda taqdimot tayyorlang. Taqdimotni tayyorlab bo'lgach, sinfdoshlaringiz uchun chiqish qilib bering.

Taqdimot mavzusi: "Mening mahallamdagi ekologik muammo".

Quyida taqdimotning tarkibi keltirib o'tiladi:

1. O'zingiz yashayotgan hududdagi tabiiy resurslar (suv, havo, o'simliklar, hayvonlar) va ularning hozirgi holati haqida qisqacha ma'lumot bering;
2. Hududdagi ekologik muammolarni tushuntirib bering. Ularni chindan ham muammo ekanligini asoslab bering;
3. Mazkur muammoning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillarni tushuntirib bering;
4. Insonlarning tabiatga salbiy ta'sir etishiga misollar keltiring;
5. Hududdagi ekologik muammolarni hal etish uchun chora-tadbirlar rejasini yarating;
6. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal etishda "birdamlik kuchi" haqida so'z yuriting;
7. Taqdimot uchun xulosa qiling.

Taqdimot tayyorlash bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar:
taqdimotingizni tushunarli va aniq qilishga harakat qiling;
ma'lumotlarni vizual tarzda (rasm, diagramma, grafiklar) taqdim eting;
ishonchli va rasmiy manbalardan foydalaning.



O'quv nashri

Akmal Sodikov, Nargiza Ismatova, Javoxir Bobojonov

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

11-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Respublika ta'lim markazi
Toshkent – 2025

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir
Badiiy muharrir
Rassom
Sahifalovchi-dizayner

*Nodir Ramazonov
Asliddin Almardanov
Alimardon Aqilov
Sarvar Farmonov
Umid Sulaymonov
Dilmurod Mulla-Axunov*

Nashriyot litsensiyasi № 140295. 04.10.2023-yilda berilgan.
Bosishga 15.08.2025-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84X108 1/16.
Arial garniturasini. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 10,4. Nashriyot-hisob tabog'i 11,15.
Adadi 566 139 nusxa. Buyurtma № 222.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.
Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69
www.gglit.uz info@gglit.uz

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.